

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH FAKULTETI

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

Fakultet dekani

\_\_\_\_\_B.Abdushukurov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018-yil

5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti ta‘limi yo‘nalishi IV kurs 402 – guruh  
talabasi

Umarova Gulmalika Qahramon qizining

**“TA‘LIM BOSQICHLARIDA OLMOSH SO‘Z TURKUMINING  
O‘QITILISHI”**

mavzusida yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar:**

\_\_\_\_\_ I.Azimova

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrası o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:**

\_\_\_\_\_ T. Yusupova

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrası dotsenti, f.f.n

\_\_\_\_\_ G.Raxmanova

TDIU qoshidagi akademik litsey

akademik litsey katta o‘qituvchisi

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi

kafedrası mudiri, f.f.nomzodi

\_\_\_\_\_ I.Azimova

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018-yil

Toshkent – 2018

## MUNDARIJA

<b>Kirish. BMI ning umumiy tavsifi.....</b>	<b>3</b>
<b>I Bob. Olmosh haqida umumiy ma'lumot.....</b>	<b>10</b>
1.1. O'zbek tilshunosligida olmosh so'z turkumining o'rganilishi.....	10
1.2. Olmoshning ma'noviy turlari.....	19
<b>II Bob. Olmosh so'z turkumining ta'lim bosqichlarida berilishi.....</b>	<b>41</b>
2.1. Umumta'lim maktablarida olmosh so'z turkumining berilishi.....	41
2.2. Akademik litseyda olmosh so'z turkumining berilishi.....	46
2.3. Innovatsion texnologiyalar yordamida olmosh so'z turkumini o'qitish metodikasi.....	49
2.4. Olmosh so'z turkumini o'qitishda qo'llaniladigan mashqlar (o'yin-topshiriqlar) tizimi.....	58
<b>III Bob. Ishning amaliyotga tadbiri.....</b>	<b>63</b>
3.1. Tajriba – sinov materiallari.....	63
3.2. Ochiq dars ishlanmasi.....	64
<b>Umumiy xulosalar va metodik tavsiyalar.....</b>	<b>69</b>
<b>Tayanch so'zlarning o'zbek-inglizcha lug'ati.....</b>	<b>73</b>
<b>Foydalanigan adabiyotlar ro'yxati.....</b>	<b>77</b>

## K I R I SH

**Mavzuning dolzarbligi.** Prezidentimiz I.A.Karimov ham o‘zining “Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir” asarida yosh avlod tarbiyasidagi ijobiy tomonga bo‘lgan o‘zgarishlarga alohida urg‘u berib, shunday deb yozadi: “Eng muhimi, zamonaviy bilim va tafakkurga, sog‘lom dunyoqarashga ega, rivojlangan davlatlardagi tengdoshlari bilan bellashishga tayyor bo‘lgan, ko‘zi yonib turadigan navqiron avlodimiz katta ishonch bilan hayotga dadil kirib kelayotgani barchamizni quvontiradi.<sup>1</sup>

Inson shaxsining kamol topishida, tafakkurining rivojlanishida, tafakkur mahsulini nutq vositasida ifodalash salohiyatini egallashida asosiy vosita bo‘lmish ona tili ta‘limi maktabda yetakchi o‘quv fanlaridan biri sanaladi. Zero, ona tili millat tafakkurini shakllantiradi, rivojlantiradi, takomillashtirib boradi va namoyon ettiradi.

Umumta‘lim maktablarining ona tili va akademik litseylarning hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida “Morfologiya” bo‘limini izchil kurs sifatida o‘qitish juda katta ta‘limiy ahamiyatga ega. Bu bo‘limni o‘qitishning ta‘limiy ahamiyati shundaki, o‘quvchilar tilning asosiy birligi – so‘z haqidagi ta‘limot bilan tanishadilar va ularning tilni bir butun tizim sifatida tushunishlari hamda o‘zlashtirishlariga imkon tug‘iladi. Zero, so‘z turkumlari tilning barcha bo‘limlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, shu bo‘limlarni o‘qitishda izchillik bilan amalga oshiriladi. Ana shu uzviylikni ta‘minlashga qaratilgan usullarni va innovatsion texnologiyalarni tadqiq qilish va nafaqat olmosh so‘z turkumi balki morfologiyaga oid bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ona tilini o‘qitish sohasiga salmoqli hissa qo‘shgan M.Asqarova, A.G‘ulomov, Y.Abdullaev,

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: Ozbekiston. 2015. –B.281.

M.Omilxonova, K.Qosimova, H.Zahirov, A.Po‘latov, A.Mirzaev, O.Roziqov, A.Sayfullaev, O.Yoqubjonova, N.Shukrullayev, R.Abdulahatova, R.Inog‘omova, B.Mirzaahmedov, M.Abduraimova, R.Qayumova, T.G‘aniyev, M.Sobirova, Sh.Yusupova, N.Sattorova, T. Yusupova, T.Ziyodova, A.Bobomurodova, M.Saidov, O.Oxunjonova kabi metodist olimlarning yaratgan tadqiqot ishlari, metodik qo‘llanmalari, ilmiy maqolalarida uzluksiz ta‘lim tizimi bosqichlarida ona tilini o‘qitish yuzasidan yo‘l-yo‘riqlar bayon qilingan. Mazkur ishlardagi tavsiyalardan bugungi kunda ham maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ona tili darslarini tashkil etishda zaruriy dasturulamal sifatida unumli qo‘llanilmoqda. Jumladan, o‘zbek tili o‘qitish nazariyasi va metodikasi fanida olmosh so‘z turkumini o‘rganish masalalari metodist olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ular tomonidan yaratilgan dissertatsiyalarda, monografiyalarda, o‘quv-uslubiy qo‘llanma va tavsiyalarda, davriy nashrlarda chop etilgan maqola va tezislarda bu masalaga juda ko‘p marotaba qo‘l urilgan. Ularni o‘rganish va tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu bo‘lim mavzularini o‘qitish masalasiga nafaqat bugungi kunda, balki uzoq davrlardan buyon dolzarb mavzu sifatida e‘tibor qaratilib kelinayotganligini guvohi bo‘lamiz, chunki bu bo‘limni o‘rganishda grammatik bilim berishgina emas, balki tilimizning so‘z boyliklari orqali o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, ularda mustaqil fikrlash, o‘z fikrini erkin va ravon bayon qila olish malakalarini shakllantirish muammolari birinchi planga chiqadi. Ana shunday mazmundagi ishlarga A.G‘ulomov va B.Qobilovanning “Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari: O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma” kitobini<sup>2</sup>, Sh.Yusupovanning “Ona tili ta‘limi samaradorligini oshirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish (noan‘anaviy usullar va kompyuterdan foydalanish)” mavzusidagi nomzodlik<sup>3</sup> va “Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari”<sup>4</sup>

---

<sup>2</sup> Гудомов А., Қобилова Б. Нутқ ўстириш машғулотлари: Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 160 б.

<sup>3</sup> Юсупова Ш.Ж. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илғор педагогик технологияларни жорий этиш (ноанъанавий усуллар ва компютердан ойдаланиш): Пед. фан.номзоди ... дисс. – Тошкент, 1998. – 26 б.

<sup>4</sup> Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: Пед. фан.доктори ... дисс. – Тошкент, 2005. – 270 б; дисс. автореферати. – 44 б.

mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalarini, B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadovalarning “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmasini,<sup>5</sup> M.Saidovning “O‘zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi”gi nomzodlik dissertatsiyasini<sup>6</sup>, M.Omilxonova, Y.Abdullayev, R.Abdulahatova, R.Inog‘omova, A.Orifjonovlarning “5- va 6-sinf-da ona tili darslari” metodik qo‘llanmasini,<sup>7</sup> T.Mirzaqulovning “Grammatika o‘qitishning lingvistik asoslari” kitobini,<sup>8</sup> N.Yo‘ldoshevaning “Umumo‘rta ta’lim maktablarida sinonimlarni yangi pedagogik texnologiya asosida o‘qitish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini,<sup>9</sup> T.Ziyodovanning “Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini,<sup>10</sup> A.Bobomurodovanning “Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin-topishmoqlardan foydalanish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini<sup>11</sup> asos sifatida keltirish mumkin.

Ona tili darslarini samarali tashkil etish masalasi har doim ham yuksak ahamiyat kasb etgan va hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Ona tili darslarining samaradorligi masalasi tadqiq etilgan ilmiy tadqiqotlardan biri bu Sh.Yusupovanning “Ona tili ta’limi samaradorligini oshirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish (noan’anaviy usullar va kompyuterdan foydalanish)”<sup>12</sup> nomli nomzodlik dissertatsiyasi hisoblanadi. Ishda “Aqliy hujum” metodidan, shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanib o‘tilgan

---

<sup>5</sup> Tўхлиев Б., Шамсиева М., Зиядова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси (ўқув қўлланма). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 174 б.

<sup>6</sup> Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед. фан. номзоди. ...дисс. – Тошкент, 2000. – 128 б.

<sup>7</sup> Омилхонова М., Абдуллаев Й., Абдулаҳатова Р., Иноғомова Р., Орифжонов А. 5- ва 6-синфда она тили дarsлари (методик қўлланма). – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 262 б.

<sup>8</sup> Мирзақулов Т. Грамматика ўқитишнинг лингвистик асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 56 б.

<sup>9</sup> Йўлдошева Н. Умумўрта таълим мактабларида синонимларни янги педагогик технология асосида ўқитиш: Пед. фан. номз. ... дисс. автореферати. – Тошкент, 2002. – 23 б.

<sup>10</sup> Зиёдова Т.У. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш. Пед. фан.номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 1995. – 141 б.

<sup>11</sup> Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоқлардан фойдаланиш: Пед. фан. номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 1996. – 146 б.

<sup>12</sup> Юсупова Ш.Ж. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илғор педагогик технологияларни жорий этиш (ноанъанавий усуллар ва компьютердан фойдаланиш): Пед. фан.номзоди ... дисс. – Тошкент, 1998. – 26 б.

darslardan namunalar va ularni tashkil qilish yo‘l-yo‘riqlari bayon qilingan. Shuningdek, ishda “Bu bizniki” usulidan foydalanish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Sh.Yusupovanning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari”<sup>13</sup> nomli doktorlik dissertatsiyasida ham dars samaradorligini oshirish masalasiga e‘tibor qaratilgan bo‘lib, unda zamonaviy pedagogik texnologiyaning mazmuni yoshlarga falsafiy fikrlashga o‘rgatish, ularda bilishga qiziqish uyg‘otish, motivatsiya hosil qilish, nazariy qoidalarni so‘zma-so‘z yodlashga emas, balki amaliyotda o‘rgatish, nostandart tafakkur qilish, rang-barang fikrlar berishga odatlantirish emas, uni ta‘limga tatbiq etish dolzarb vazifa ekanligini ta‘kidlaydi. Metodist o‘z ishida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tgan bo‘lib, o‘quvchi tafakkurini o‘stirishda “Aqliy hujum”, “Bu bizniki” metodlarini qo‘llash yaxshi samara berishini olib borgan tajriba-sinov ishlari natijalari bilan izohlaydi.

Ona tili darslarini qiziqarli tashkil etishning eng qulay yo‘llaridan biri o‘yin darslaridir. Ona tili darslarida o‘yin turlaridan foydalanish masalasi metodist A.Bobomurodovanning dissertatsion ishida tahlil etilgan.<sup>14</sup> U o‘z ishida ona tilining har bir bo‘limini o‘rganishda qaysi tildagi va turdagi ta‘limiy (didaktik) o‘yin-topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi va buning yo‘llarini ko‘rsatgan. O‘yin usulida darsni yoki darsning ma‘lum bir bosqichini tashkil etish, albatta, o‘z-o‘zidan o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, ularni hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishga undaydigan ta‘lim usuli hisoblanadi. A.Bobomurodova ona tilidan o‘quvchilarga beriladigan o‘yin-topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra uch turga ajratar ekan, birinchi turiga qayta xotiralashga asoslangan o‘yin-topshiriqlarni kiritadi. Faqat ushbu o‘yinlarning kamchilik tomoni borligini eslatadi: «Qayta xotiralashga asoslangan o‘yin-topshiriqlar o‘quvchidan hech qanday ijodiylikni, egallagan bilimlarni yangi sharoitda qo‘llashni, yaratuvchanlikni talab etmaydi. Bunday o‘yin-topshiriqlarni bajarish o‘quvchiga katta

---

<sup>13</sup>. Юсупова Ш.Ж. Хозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: Пед. фан.доктори ... дисс. автореферати. – Т., 2005. – 44 б.

<sup>14</sup>. Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоқлардан фойдаланиш. - Пед. фан.номзоди ... ёзилган дисс. – Т., 1996. – 8-бет.

murakkablik tug'dirmaydi, oldin o'rganilgan mavzular va muayyan bilimga ega bo'lgan o'quvchi bunday topshiriqlarni bimalol bajarishi mumkin»<sup>15</sup>. Albatta, topshiriqlarni bimalol bajarish uchun bilim, ko'nikma va malakalar yaxshi egallangan bo'lishi lozim. Buning uchun esa o'quvchi o'zi unutgan narsalarini xotiraga tushirish haqida o'ylashi, biror yo'l bilan o'qib olishi, sinfdoshlaridan eshitib bo'lsa ham, bila borishi darkor.

**BMIning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek tili va Adabiyoti Universiteti "O'zbek tili va uni o'qitish" "2017–2018-yillarga mo'ljallangan BMI mavzulari banki" istiqbolli rejasi asosida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Tadqiqotning maqsadi umumta'lim maktablarining ona tili va akademik litseylarning hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida morfologiya bo'limining olmosh so'z turkumi mavzularini o'qitishning mazmuni shakli, vositalari va metodlarini, shu jarayonda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishga va ularda nutq madaniyatini shakllantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Tadqiqotning bosh vazifasi sifatida ta'lim bosqichlari ona tili ta'limi jarayonida olmosh so'z turkumi bo'limi mavzularini o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish masalasi belgilandi. Shunga ko'ra tadqiqot ishini yoritish davomida:

- Ta'lim bosqichlarida olmosh so'z turkumi mavzularini o'qitishga doir turli xil qarashlarni o'rganish, uni o'qitish bilan bog'liq ilmiy-nazariy va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, mavzuning yoritilganlik darajasini va mavjud muammolarni aniqlash;
- Amaldagi "Ona tili" o'quv dasturi va darsliklarining olmosh so'z turkumi mavzularini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini o'rganish, tahlil qilish va xulosalar chiqarish;

---

<sup>15</sup>. Юқоридан номи кўрсатилган адабиёт. – 8-бет.

- Ta'lim bosqichlarida o'qituvchilar faoliyatida innovatsion texnologiyalardan foydalana olishining hozirgi holatini yoritish va tegishli xulosalar chiqarish;
- Ona tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashga doir yondashuv va tamoyillarni belgilash;
- Ta'lim bosqichlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarador usul va vositalarini ishlab chiqish;
- Ta'lim bosqichlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq samarali mashqlar tizimini yaratish, shuningdek, o'quvchilarning matn yaratish ustidagi ishlari, muomala odobini egallashlari bilan bog'liq o'quv topshiriqlari va mashqlar tizimini ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti.** Ta'lim bosqichlari ona tili darslarining olmosh so'z turkumini o'qitish jarayoni.

**Tadqiqot predmeti.** Ta'lim bosqichlari ona tili darslarining olmosh so'z turkumini o'qitish jarayoniga xos ta'lim shakli, vositalari, mazmuni va metodlarining talqini.

**Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari.** Ishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning nutqlariva asarlari, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy taraqqiyotini belgilovchi davlat hujjatlari, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida", "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlari, o'zbek maktablarida ona tili ta'limi Konsepsiyasi, "Ona tili" DTSi, taniqli psixolog, filolog, pedagog va metodist olimlarning ona tili ta'limining mazmunini yangilash, uni o'qitishning samaradorligini oshirish to'g'risidagi ilmiy-metodik asarlari metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Ishda qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, analiz va sintez, mantiqiylik kabi metodlar asosida tahlillar olib borildi.

**Ishning ilmiy yangiligi.** Ishda umumiy pedagogika hamda xususiy metodika sohasida mavjud qarashlar asosida ta'lim bosqichlari ona tili darslarida olmosh so'z turkumini o'qitish metodikasi tadqiq qilindi. Bunda:



- Ta'lim bosqichlarida olmosh so'z turkumining o'rganilish masalasiga oid qilingan tadqiqot ishlari va metodik qo'llanmalarga munosabat bildirildi.
- Ta'lim bosqichlarida olmosh so'z turkumini o'rganilishining hozirgi holati o'rganildi.
- Mavjud dastur va darsliklar shu nuqtai nazar bilan tahlil qilindi.
- Ta'lim bosqichlarida olmosh so'z turkumini o'rganish bilan bog'liq ishlarga qo'yiladigan asosiy talablar belgilandi.
- Ta'lim bosqichlarida olmosh so'z turkumini o'rganish bilan bog'liq ishlarni tashkil etish metodikasi yaratildi.
- Ta'lim bosqichlarida olmosh so'z turkumini o'rganish bilan bog'liq tajribalar o'tkazildi va tahlil qilindi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishining ilmiy ahamiyati ta'lim bosqichlari ona tili ta'limida nafaqat olmosh so'z turkumini balki morfologiya bo'limini o'rganish holatini aniqlashda hamda uni o'qitishning nisbatan qulayroq shakl va usullarini tavsiya etishda namoyon bo'ladi. Shuningdek, tadqiqotning xulosalari va tahlil materiallari olmoshni o'qitish masalalariga oydinlik kiritadi, uni o'rganishda va ta'lim bosqichlarida qo'llashda manba bo'la oladi. Ta'lim bosqichlari ona tili ta'limida olmosh so'z turkumini o'qitishda ishlab chiqilgan mashqlar tizimi amaliy material bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi.** BMI Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakultetining "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" kafedrasida yig'ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etildi.

**Ishning tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi uch bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, BMIda qo'llangan terminlarning o'zbekcha-inglizcha lug'ati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 79 varoq.

## I BOB. Olmosh haqida umumiy ma'lumot.

### 1.1. O'zbek tilshunosligida olmosh so'z turkumining o'rganilishi.

O'zbek tili birliklarini (jumladan, barcha so'z turkumlariga oid lug'aviy birliklarni) fonetik, fonologik, morfologik, leksik, semantik, stilistik, pragmatik jihatdan o'rganish keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Binobarin, bu borada hal etilishi va chuqur o'rganilishi lozim bo'lgan muammolar anchagina. Bugungi kunda bo'layotgan jamiyatdagi o'zgarishlar, taraqqiyot tilimizda ham o'z aksini topmoqda. Tilning muhim elementi hisoblanadigan so'zning lingvistik tabiati, shakl va ma'no xususiyatlari, uning nutqiy jarayonda tutgan o'rni qadimdan tadqiqotchilarning diqqatini tortib kelmoqda. So'zlarning inson, narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat- holat singarilarni ifodalashdagi o'ziga xos jihatlarini belgilash maqsadida ularni muayyan guruhlar va turkumlarga ajratgan holda tahlil etish borasida tilshunoslar yakdildirlar.

O'zbek tili leksik-grammatik tizimida alohida xususiyatlarga ega bo'lgan olmoshlar ham so'z turkumlari orasida mustaqil guruh sifatida e'tirof etib kelinmoqdaki, bu e'tirof ma'lum nazariya asoslarga ega.

So'z turkumlarining, jumladan olmoshlarning o'zbek tilshunosligida o'rganilishi haqida S.Ashirboyevning "O'zbek tili grammatik qurilishining o'rganilish tarixidan (1875-1917 yillardagi rus turkologlari asarlari asosida)" mavzusida yozilgan nomzodlik dissertasiyasi va J. Eltazarovning "So'z turkumlari haqida lingvistik nazariyalar" nomli monografiyasida ma'lumotlar batafsil berilgan<sup>16</sup>.

Ularda qayd etilishicha, XIX asrning 70-yillaridan boshlab chor Rossiyasi O'rta Osiyoni o'ziga bo'ysundirgan va yangi mustamlakani boshqarish uchun yerlik aholining tilini o'rganishi lozim bo'lgan. Shu maqsadda M.Terentyev, A.V.Starchevskiy, V.Nalivkin, S.A.Lapin, I.A.Belyayev, L.Afanasyev, N.Budzinskiy, N.Ostroumov kabilar sart (o'zbek) tilini o'rganishga oid

---

<sup>16</sup> Юсупова Ш.Ж. Хозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: Пед. фан.доктори ... дисс. – Тошкент, 2005. – 270 б; дисс. автореферати. – 44 б.

qo‘llanmalar yozishgan. O‘tgan asrning 30-yillaridan boshlab o‘zbek olimlari ham grammatikaga oid asarlar yarata boshladilar. Q.Ramazon va X.Qayumiy, X.Qayumiy va S.Dolimov, O.Usmon va B.Azizovlar ham muallifliklarida yaratilgan qo‘llanma va darsliklar shular jumlasidandir. Bu asarlarda olmoshlar haqida ayrim ma’lumotlar berilgan.

F.Kamol tahriri ostida nashr etilgan «Hozirgi zamon o‘zbek tili» (1957), M. Mirzayev, S. Usmonov, I. Rasulovlarning “O‘zbek tili” (1962), mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I tom” (1966), “O‘zbek tili grammatikasi”ning akademik nashri (1975), “XV-XIX asrlar o‘zbek tili morfologiyasi” (1990)da ham olmoshlar mustaqil so‘z turkumlar sifatida alohida o‘rganilgan. Bu adabiyotlar ro‘yxatini “XII-XIV asrlar turkiy adabiy yodgorliklar tili” (1986), Sh.Shoabdurahmonov va boshqalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (1980), M.Asqarova va X.Abdurahmonovlarning “O‘zbek tili grammatikasining praktikumi” (1981), U.Tursunov va boshqalarning ‘Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (1992), A.Mengliyevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (2004), M.Qurbonovning “Hozirgi zamon o‘zbek tili” (2002), Sh.Rahmatullayevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (2006) singari asarlari hisobiga davom ettirish mumkin.

Olmoshlar masalasi yoritilgan ilmiy manbalarni 3 guruhga ajratib qarash maqsadga muvofiq:

1. *Olmosh tarixiy nuqtai nazardan yoritilgan asarlar.* O‘zbek tili tarixiy morfologiyasining ismlar silsilasida qaraladigan olmoshlar qadimiy turkumlardan bo‘lib, ularning shakllanishi va taraqqiyoti G‘.Abdurahmonov va Sh.Shukurovning “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi”, J.Hamdammovning “O‘zbek tili tarixi. II qism. Tarixiy morfologiya. Birinchi bo‘lim” kabi asarlarda, H.Ne‘matovning ayrim ishlarida tadqiqot obyekti bo‘lgan hamda o‘zining tegishli ilmiy-nazariy bahosini olgan.

O‘zbek tilshunosligida olmoshlar tadqiqiga bag‘ishlangan sezilarli ishlardan biri Yusupovning kuzatishlari bo‘lib hisoblanadi. Olimning “Eski

o‘zbek adabiy tilida olmoshlar (XV-XVI asrlar)” deb nomlangan monografiyasida Alisher Navoiy va uning zamondoshlari asarlarida, XV-XVI asrlarda yuzaga kelgan yozma yodgorliklarda o‘z ifodasini topgan olmoshlarning barcha turlari aniqlangan va tavsiflangan. Eski o‘zbek tili va hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilgan va qo‘llanilayotgan olmoshlarning asosiy leksik-grammatik hamda semantik farqlari, o‘ziga xos xususiyatlari ishonchli dalillar asosida ko‘rsatib berilgan.<sup>17</sup>

Muallif olmoshlar xususidagi u yoki bu fikrni tasdiqlash maqsadida XI-XII asrlarda yaratilgan yozma yodgorliklar hamda hozirgi o‘zbek tili va uning shevalaridan to‘plangan materiallardan qiyosiy foydalangan.

Rus va turkiy tilshunosliklar hamda o‘zbek tilshunosligida olmoshlarni o‘rganishga bag‘ishlangan qator ishlar B.Yusupovning monografiyasida tahlil qilingan va ularning ayrimlariga munosabat bildirilgan.

Tadqiqotga berilgan ilovalar ham ilmiy jihatdan ahamiyatlidir. Ilovalardan ma’lum bo‘lishicha, XV-XVI asrlar eski o‘zbek tilida ifodasini topgan 64 ta olmosh (*men, sen, ul, u, nimarsa, kimsa* va boshqalar), qayd etilgan davrda qo‘llangan 48 ta olmoshning asli turkiy ekanligi, 9 ta arab tilidan o‘zlashtirilgan (*jam’i, koffa, biajmaihim* va boshqalar), 7 ta fors-tojik tillaridan olingan (*hamin, hamon, tobakay* va boshqalar). Ilovalardan XV-XVI asrlarda qo‘llangan olmoshlarning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi shakllarining qiyosiy jadvali ham joy olgan.

*U. Sanaqulovning doktorlik dissertasiyasida olmoshlar evolyusiyasi xususida ham so‘z yuritilgan. Unda To‘nyuquq, Kultegin, Oltin yoruq kabi yozma yodgorliklar tilida qo‘llangan ban (men), na, kanty (kandy), o‘z, qamug‘-qamuq (hamma, barcha), alqu (hamma), anaqaya (ana-mana), sa-si (sen), yshyl, oshal, shyl, ysh, oshny, ashny, na-ns, nschyk, mlyk, nstsk, nsgu, nssha, qay, qach, qan, qanda, qayan singari olmoshlar tahlil qilingan. Ilovadagi 12-jadvalda*

---

<sup>17</sup> Мирзакулов Т. Грамматика ўқитишнинг лингвистик асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 56 б.

VII-X asrlarda, 13-jadvalda XI-XIV asrlarning yodgorliklari tilida qoʻllangan olmoshlar sanab oʻtilgan<sup>18</sup>.

2. *Hozirgi oʻzbek tilidagi olmoshlar maxsus tadqiq qilingan yoki olmoshlar masalasi ham tilga olingan asarlar.* Mazkur soʻz turkumi monografik yoʻnalishda ham oʻrganilgan. Masalan, X.Komilovning “Oʻzbek tilida son va olmosh” asari va I.Suyarovning “Hozirgi oʻzbek adabiy tilida olmosh” mavzuyidagi nomzodlik dissertasiyasi bu boradagi yirik tadqiqotlardan boʻlib hisoblanadi. Ushbu ishlarda olmoshlarning lingvistik tabiati, ayniqsa, grammatik xususiyatlari toʻgʻrisida atroflicha mulohazalar yuritilgan, stilistik xususiyatlariga ham qisman toʻxtalib oʻtilgan.

Oʻzbek tili olmoshlari haqidagi ilk maxsus tadqiqot X.Komilova qalamiga mansub. Uning “Oʻzbek tilida son va olmosh” deb atalgan ishida olmoshlarning umumiy tavsifidan soʻng, ularning turlari haqida soʻz yuritilgan va ular 6 ta deb koʻrsatilgan. Olmoshlarning monografik tadqiqi I. Suyarovning yuqorida tilga olingan tadqiqotida maxsus amalga oshirilgan. Mazkur dissertasiya bevosita olmoshlarning leksik-grammatik xususiyatlarini tahlil etishga bagʻishlangan. Ammo I.Suyarovning bir mulohazasi aniqlik talab qiladi. Muallif olmoshlarning bir turi ayrim tilshunoslar (Q. Ramazon va X.Qayumiy, A.K.Borovkov, M.Mirzayev, S.Usmonov, S.Ibrohimov, A.Rasulov va boshqalar) tomonidan *kishilik olmoshlari* va boshqalari tomonidan (X.Komilova) *shaxs olmoshlari* deb nomlanganligini uqtirib, shunday xulosaga keladi: *shaxs olmoshlari* termini bu turdagi olmoshlarning xususiyatlariga har jihatdan mos keladi. Bu turdagi olmoshning *shaxs olmoshi* yoki *kishilik olmoshi* deb atalishi masalaning mohiyatini oʻzgartirmaydi. Shu bois, koʻpchilikning fikrini va mustaqillikdan keyingi yangi Davlat taʼlim standartlari asosida yaratilgan barcha turdagi oʻquv adabiyotlaridagi nomlanishni inobatga olib, *kishilik olmoshlari* terminini qoʻllash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

---

<sup>18</sup> Зиёдова Т.У. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш. Пед. фан.номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 1995. – 141 б.

O‘zbek tilshunosligida olmoshlarning o‘rganilishi va uning so‘z turkumlari tizimida tutgan o‘rni, tarixiy shakllari, olmoshlarning o‘ziga xos xususiyatlari, tabiati, badiiy matnlarda uchrashi ayrim maqolalarda ham o‘z ifodasini topgan. M.Asqarova, S.Ibrohimov, G‘.Karimov, S.Muhamedov, M.Temirova, B.Ubaydullayev, U.Sharipova, Q.Mahmudov, H.Hojiyeva, D.Hakimova kabi tilshunoslarning maqolalari shular jumlasidandir.

3. *Olmoshlarning ayrim turlarining stilistik xususiyatlari yuzasidan fikr bildirilgan yoki ma’lum darajada yoritilgan asarlar.* Bu ishlar sirasiga R.Qo‘ng‘urov S.Karimov, B.Isabekov, T.Akramov va N.Fozilovalarning maqolalari kiradi. Jumladan, R.Qo‘ng‘urovning «Olmosh stilistikasiga doir ayrim mulohazalar» nomli maqolasida kishilik, ko‘rsatish, so‘roq, belgilash, gumon olmoshlarining uslubiy xususiyatlari, ularning asosiy ma’nolari bilan bir qatorda qo‘shimcha ma’nolar kasb etishi, bunday holat esa badiiy-estetik vazifani bajarishga xizmat qilishi ko‘rsatib berilgan.

O.Yusupovning “O‘zbek tilida olmoshlarning funksional-stilistik xususiyatlari” nomli dissertasiyasi o‘zbek tilshunosligida olmoshlarning tutgan o‘rni ularning funksional-stilistik xususiyatlarini tahlil etgan.

M.Hamroyevning “Hozirgi o‘zbek tilidagi ko‘rsatish olmoshlarining funksional - semantik xususiyatlari” nomli monografiyasi hozirgi o‘zbek tilidagi ko‘rsatish olmoshlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda olmoshning bu turi yangicha nuqtai nazar bilan talqin qilingan.

Ma’lum bo‘ldiki, o‘zbek tilshunosligida mustaqil so‘z turkumlaridan sanaladigan olmoshlar yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilgan. Ularda olmoshning turlari aniqlangan, ma’noviy xususiyatlari yuzasidan kuzatishlar olib borilgan, mazkur so‘z turkumini yaxlit hodisa sifatida tadqiq etish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Keyingi yillar adabiyotlarda maqola va monografiyalarda olmoshlarning leksik- semantik, grammatik xususiyatlari, imkoniyatlari kengroq ochilib, turli atamalar bilan ham (“ichi bosh so‘zlar, ishora so‘zlar”) atalib kelinadi. Masalan, R.Sayfullayev, A.Mingliyev va boshqalar tomonidan chiqqan “Hozirgi o‘zbek

adabiy tili” kitobida quyidagi fikrlar keltirilmoqda. “Ma’lumki, soʻzlar ma’noviy belgisiga koʻra uch turga boʻlinadi”

- a) Mustaqil ma’noli soʻz (fe’l, ot, sifat, son, ravish, taqlid);
- b) Boʻsh-ishora ma’noli soʻz (olmosh);
- c) Yordamchi ma’noli soʻz (koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, koʻmakchi fe’llar).

“Ishoraviylik” ramzi bilan ataluvchi olmosh boshqa leksemalardan ajralib turadi. Oʻzbek tilshunosligida olmoshning doirasi va vazifasi zoʻrma-zoʻrakilik bilan ancha chegaralanib “ot, sifat, son oʻrnida qoʻllanuvchi soʻz” sifatida oʻta tor tushunilgan. Vaholanki, bu bilan olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki fe’l, ravish, taqlid, undov, gap va hatto matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyatlari hisobga olinmagan. Darslikda yuqoridagi fikrlar isbotlanib, *men, sen, u, biz, siz, ular* shaxsga *kim, nima, bu, ana, mana bu* kabi olmoshlar predmetga, *qanday, shunday, bunday kabilar belgiga, buncha, shuncha, qancha kabilar* miqdorga, *qachon, qachon paytga, qayer oʻringa, shunday boʻlmoq, qanday qilmoq* kabi harakat-holatga ishora qilish aytiladi. Hech bir soʻzni almashtirmasdan kelishi ham misollar yordamida berilgan. *Kim mehnat qilsa, u rohat topadi. Men kecha keldim. Sen buni bilasan. Nima qilsam ham men oʻzim bilaman. Hamma mehmonlar biznikida. Barcha mushkulotlar oson boʻldi* kabi gaplarda kishilik, belgilash, oʻzlik olmoshi hech bir soʻzni almashtirmagan. Fikrlardan koʻrinadiki, olmosh hamma vaqt ham qandaydir bir soʻzni almashtirib, uning oʻrnida kelavermaydi. Bu holat ham olmoshlarning oʻziga xos leksik-semantik xususiyatlarini ifodalaydi. Shu oʻrinda yana bir narsani aytib oʻtish kerakki, arab tilshunosligida olmosh alohida soʻz turkumida berilmagan, balki har bir soʻz turkumi ichida “yashirin ma’noli soʻz”, zamirlar sifatida alohida guruhlariga ajratilgan. Masalan, kitob, daftar aniq ma’noli ot boʻlsa, *men, sen, kim* yashirin ma’noli ot (zamid ot) dir. Yoki *oq, qizil, chiroyli* ma’lum ma’noli sifat hisoblansa, *bunday, shunday, kabilar* “zamid sifat”dir<sup>19</sup>.

---

<sup>19</sup>SayfullayevaR.R., MengliyevB.R., BoqiyevaG.H., QurbonovaM.M., YunusovaZ.Q., AbuzalovaM.Q. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Oʻquv qoʻllanma. - Toshkent: OʻzMU nashri, 2007. -380 b.

Olmoshlarning leksik-semantik xususiyatlaridan biri shuki, ular shaxs, predmet, belgi yoki miqdorga xos bo‘lgan umumiy ma’noni anglatadi. Olmoshni bildiruvchi ma’no nutq jarayonida aniq yuzaga chiqadi. Ular o‘zlari almashtiruvchi so‘zlar kabi morfologik jihatdan o‘zgaradi. Olmoshlarda umumiylik juda kuchli darajada bo‘ladi. Masalan, *bu* so‘zi kontekstdan tashqaridan olinganda uning ma’nosi juda umumiy mavhum xarakterga ega bo‘ladi. *Bu daraxt bo‘lishi ham mumkin, bu- odam bo‘lishi ham mumkun, bu hayvon bo‘lishi ham mumkin* va hokazo.

Shuning uchun umumlashtirish, umumiylik haqida gapirganda olmoshlardan misol keltirishi bejiz emas. Ularning ma’nosi esa gapda o‘zi aloqador bo‘lgan so‘z bilan birgalikda aniqlanadi. *Tabiat buyuk bir shoir ekan. Yomg‘irni yerga ranglar kamalagida solib otadi... yerga oshiqayotgan har uchqun qorga gul solib ulgiradi. U chindan ham buyuk! Shogid bo‘lsam edi, unga...* (O.Matjon “Iymon yog‘dusi”, 128- bet). *Hayriyat qonim yurtimizga to‘kiladigan bo‘ldi, - dedi u allaqanday quvonch bilan.* (S.Ahmad, Qorako‘z majnun, 75-bet). Birinchi gapda *u* tabiat so‘zi o‘rnida, ikkinchi gapda shaxs ma’nosini ifodalamoqda. Bu ma’no esa gap ichida anglashilmoqda.

Olmoshlarning leksik-semantik xususiyatlaridan biri ular ot, sifat, son kabilar o‘rnida qo‘llanilishi va “shunchaki qo‘shimchasi” so‘zlar emasligidadir. Chunki biror ma’noni

ifodalovchi so‘z bo‘lgani holda, shu ma’noning aynan o‘zini ifodalash uchun tilda yana qandaydir boshqa so‘zlarning bo‘lishiga ehtiyoj bo‘lmaydi. Olmoshlarning qo‘llanishi esa bir tomondan, ularning tilda turmush talabi bilan kelib chiqqan so‘zlar ekanini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, tilda muhim o‘rni, o‘ziga xos xususiyati borligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham olmoshlarning kelib chiqishi qadimiy sanaladi<sup>20</sup>.

Olmoshlarda variantlikning vujudga kelishi davrlar o‘tishi bilan so‘z qurilishida vujudga keladigan fonetik-struktural o‘zgarishlar, jumladan, qisqaruv, tovush tushishi va ortirilishi kabi hodisalar bilan bog‘liq.

---

<sup>20</sup>RahmatullayevSh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. - Toshkent: Universitet, 2006. -464 b.



Olmoshlar ma'no jihatdan boshqa mustaqil so'zlardan ma'lum darajada farq qiladi. Ular predmet, belgi va miqdor ma'nolarini to'g'ridan-to'g'ri ifodalamay, balki boshqa predmet, belgi va miqdor tushunchalari bilan bog'langan holda ifodalaydi. Olmoshning konkret ma'nosi kontekst, situatsiya - nutq protsessida ishtirok etuvchilarning munosabatiga qarab konkretlashadi. Olmoshlar konkret ma'no bilan umum ma'noning almashinib qo'llanishini xarakterlovchi so'zlardir. Olmoshning muhim belgilaridan biri uning abstrakt va umumlashgan ma'nolarni ifodalashidadir: *Ular kim-u biz kim? U nimayu bu nima?* Shaxs, ikki predmetni ko'rsatgan. Olmoshlar ba'zi xususiyatlariga ko'ra sifatlarga va ayrim belgilarga ko'ra ravishlarga yaqin turadi. Shuning uchun ham ayrim tilshunos olimlarning uni olmosh-otlar, olmosh- sifatlari va olmosh-ravishlar deb alohida turkumlarga ajratishlari (A.A.Shaxmatov), ayrim tilshunoslar tomonidan ot xarakteridagi olmoshlargina "olmosh" turkumi ichida o'rganilib, ravish va sifat xarakteridagi olmoshlar to'g'ridan-to'g'ri ravish va sifatga (V.V.Vinogradov) kiritilishi bejiz emas. Hatto E.D.Polivanov olmoshni alohida so'z turkumi sifatida olmay, otga (aniqrog'i ot tarzidagi olmoshga) kiritadi.<sup>21</sup>

Boshqa turkum leksemalariga beriladigan so'roqni bildiruvchi va shunday leksemalar o'rnida ishlatiluvchi birliklarga olmosh leksemalar turkumi deyiladi. Olmoshdan leksik ma'no emas, balki mavhum grammatik ma'no anglashiladi.

Har bir lug'aviy leksemalar turkumining o'z so'roq olmoshlari bo'ladi:<sup>22</sup>

- 1) ot so'roq olmoshlari: *kim-, nima-*;
- 2) sifat so'roq olmoshlari: *qanday, qanaqa, qaysi*;
- 3) son so'roq olmoshlari: *necha, qancha, nechadan, nechanchi*;
- 4) ravish so'roq olmoshlari: *qachon, nega, nimaga, nechuk, qanday qilib, qay tarzda*;
- 5) Fe'l so'roq olmoshlari: *nima qildi, nima qiladi, nima qilayotir*.

Olmoshlar ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

---

<sup>22</sup> Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоқлардан фойдаланиш. - Пед. фан.номзоди ... ёзилган дисс. – Т., 1996. – 8-бет.

- 1) Kishilik olmoshlari: men, biz (I shaxs); sen siz (II shaxs); u, ular (IIIshaxs);
- 2) Ko'rsatish olmoshlari: bu, shu, o'sha, mana shu, mana bu, ana shu kabilar;
- 3) So'roq olmoshlari: kim, nima, qanday, necha, qaysi, qancha, nega, qalay kabilar;
- 4) O'zlik olmoshi: o'z;
- 5) Belgilash jamlash olmoshlari: hamma, butun barcha, bari, har kim, har qanday (hech qaysi) kabilar;
- 6) Bo'lishsizlik olmoshi: hech kim, hech qanday, hech nima, hech qaysi kabilar;
- 7) Gumon olmoshlari: allakim, allaqanday, allaqaysi, kimdir, nimadir, allanima kabilar

## 1.2. Olmoshning ma'no turlari.

Tilshunos olim Qalandar Sapayev fikrni olmoshlar haqida quyidagi fikrni ilgari surgan:

Gap ichida ot, sifat, son, ravish, ba'zan so'z birikmasi va gap o'rnida qo'llana oladigan, aniq lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan so'z turkumi **olmosh** deb ataladi. Misollar: 1) ot o'rnida: *Karim juda quvondi, chunki u o'z orzusiga erishgan edi.* 2) sifat o'rnida: *Kechagi kitobingni berib tur, men shu kitobdan misollar olmoqchiman.* 3) son o'rnida: *Menda ikkita qalam bor, senda nechta bor?* 4) ravish o'rnida: *Men bugun ketaman, sen qachon ketasan?* 5) so'z birikmasi o'rnida: *Yomon so'z bosh qozig'idir, shunday so'zni gapirmagan ma'qul.* 6) gap o'rnida: *Sen mehnat qilishni yoqtirmaysan, bu esa insondagi eng yomon xislatdir.* Olmoshlar turlanadi, gapda ko'pincha ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi va undalma bo'lib keladi. Masalan: *Hamma keldi. Bizni tabriklang. Shu kitobni bering. Hoy, sen, beri kel!*

### OLMOSHLARNING TURLARI

Eski o'zbek tilida ham olmoshlarning hozirgi o'zbek tilidagi turlari amalda bo'lgan: kishilik, o'zlik, ko'rsatish, so'roq, bo'lishsizlik, gumon, belgilash, birgalik olmoshlari. Lekin bu olmosh turlarining shakllari turlanishdagi o'zgachliklari bo'yicha eski o'zbek tilining o'zbek tilining o'ziga xos tomonlari ham bor.

#### Kishilik olmoshlari

Kishilik olmoshlari shaxslarga nisbatan ishlatiladi. Ba'zi kishilik olmoshlari shaxsni ifodalash bilan birga ko'rsatish ma'nosini ham bildiradi. Shunga ko'ra kishilik olmoshlarini ikki guruhga bo'lish mumkin: 1) **sof kishilik olmoshlari** (*men, sen, biz, siz*); 2) **kishilik - ko'rsatish olmoshlari** (*u, ular*).

Sof kishilik olmoshlari faqat shaxsni ko'rsatadi, ya'ni so'zlovchi va tinglovchini ifodalaydi. Ba'zan she'riyatda sof kishilik olmoshlari badiiy tasvirning jonlantirish usulida narsalar uchun qo'llanishi ham mumkin.

Masalan:

*Ruhimda bir mayuslik sokinlik uyg'otganda,*

*Men **seni** esga oldim, birinchi muhabbatim. (A.Oripov).*

Kishilik ko'rsatish olmoshlari esa kishilik bilan bir qatorda ko'rsatish olmoshi vazifasini ham bajaradi. Kishilik olmoshi o'rnida kelganda *kim?* va qisman *nima?* savollariga javob bo'lishi bilan ko'rsatish olmoshidan farqlay olishimiz mumkin.. Ko'rsatish olmoshi vazifasini bajarganda esa o'ziga aniqlanmishni qabul qilib *qaysi?* savoliga javob bo'ladi. Solishtiring: *U biz bilan o'qiydi (u-kishilk olmoshi) –U talaba biz bilan o'qiydi (u- ko'rsatish olmoshi).* Bunda birinchi gapda so'zning kim so'rog'iga, ikkinchi gapda esa nima so'rog'iga javob bo'lishini ko'ramiz.

Kishilik olmoshlari ot kabi grammatik xususiyatlarga ega bo'ladi. Ammo olmosh mustaqil so'z sifatida otdan o'ziga xos tomonlari bilan farq qiladi. Har qanday ot kelishik affikslarini to'g'ridan-to'g'ri o'ziga qabul qiladi. Olmosh esa bu affikslar bilan turlanganda ma'lum fonetik o'zgarishlar yuzaga keladi. Masalan, I-II shaxsdagi *men, sen* olmoshlari qaratqich va tushum kelishiklari affiksini olganda, bitta **n** tovushi tushib qoladi: *men+ning = mening, sen+ning = sening; men+ni=meni, sen+ni=seni.*

III shaxs *u* olmoshi esa o'rin-payt, jo'nalish va chiqish kelishiklari affiksini olib turlanganda bitta **n** orttiriladi: *u+ga = unga, u+da unda, u+dan = undan.*

Bundan tashqari *sen* olmoshi o'zidan kichiklarga yoki yaqin kishilarga murojaat tarzida yoki ularning nomi o'rnida ishlatiladi. Masalan: **Sen** – *Pushkinning sevgan maslagi, Sen* – *Gyote orzu qilgan qiz. (A.Oripov)*

*U* olmoshi soʻzlovchi va tinglovchidan boshqa shaxsni nutq jarayonida qatnashmagan shaxs (“oʻzga”)ni bildiradi. Masalan: **Uning** ovozi oʻziga juda uzoqdan eshitilayotganga oʻxshardi. (S.Abdulla).

*U* olmoshi *bu* koʻrsatish olmoshi bilan juft soʻz hosil qilib noaniq boʻlgan narsa, hodisa maʼnosini ifodalaydi. Masalan: *Taxta va gʻishtlar ustiga u–bu yopdilar.* (A.Muxtor). Badiiy adabiyotda *u* olmoshi *ul* shaklida ham qoʻllanadi. Masalan: *Oy bilan oshno boʻlib, yillarcha oʻynang ul bilan. Ul-bul ola kelaymi? Ertasiga togʻam bilan ul-bullarni koʻtarib yoʻlga tushdik.* (Gʻayratiy).

*Biz* olmoshi soʻzlovchi bilan muloqotda boʻlgan yoki soʻzlovchi koʻzda tutayotgan shaxslarga ishora qiladi. Masalan: *Kecha bekatdan chiqqan avtobus bugun bizni tongotarda moʻljaldagi joyga tashlab ketdi.* (Oʻ.Usmonov). *Biz* olmoshi birinchi shaxs «men» oʻrnida ishlatilib kamtarlik yoki, aksincha, maqtanish, gʻururlanish, pinhona gʻurur maʼnolarini ifodalaydi. Masalan: *-Kim talabgor? – mana, biz talabgor.*

Oʻrin-payt affiksini olib, “yurtimizda”, “elimizda”, “oramizda” kabi maʼnolarni anglatadi. Masalan: *Surnaychining zoʻrlari bizda boʻladi.* (S.Siyoyev). *Non - nasibang bizda boʻlsa, qolarsan.* (Oybek).

*Bizniki* shaklida (egalik olmoshi) qoʻllanib, soʻzlovchiga va *u* koʻzda tutayotganlarga tegishli, qarashlilik maʼnolarini ifodalaydi. Masalan: *Bu yilgi ekinlar, mevalar bizniki boʻladi. Sening gaping gap-u, bizniki gap emasmi!* (A.Qahhor).

Koʻplikdagi II shaxs *siz* kishilik olmoshi oʻzidan kattalarning yoki hurmat bildiriladigan shaxsning nomi oʻrnida qoʻllanadi. Masalan: *Qimirlamang, otaxon! Siz kelganda biz tursak yarashadi, biz kelganda siz tursangiz xunuk koʻrinadi.* (A.Qahhor.)

Shuningdek, bu olmosh koʻpchilikka qaratilgan murojaatda ham qoʻllanadi. Masalan: *-Sizlar kim boʻlasiz?-dedi Choʻli bobo.* (Mirmuhsin). III shaxs

koʻplikdagi *ular* olmoshi soʻzlash jarayonida ishtirok etmagan birdan ortiq boshqa shaxsni yoki narsalarni ifodalaydi. Masalan: ***Ular*** *bizga etib olishsin.* (A.Muxtor

Kishilik olmoshlari gapda turli xil gap boʻlaklari vazifasini bajaradi. Misollar: *Hamma uxlar va faqat tunni **mening** oʻzim qarshi olurman.* Ushbu gapda *qaratqich aniqlovchi vazifasida.*

Kishilik olmoshlari eski oʻzbek tilida quyidagicha koʻrinishda boʻlgan:

### I shaxs birligi-**men**

XV asr va undan keying manbalarda kishilik olmoshlarining I shaxs birligi maʼnosida, yani men oʻrnida faqir, banda, kamina soʻzlari ham qoʻllanilgan:

Ey koʻr, **kamina** sizni bilimlik, maʼnidin baxabar sanur erduk (Gulxaniy).

Bunday soʻzlar ishlatilganda soʻzlovchining kamtarligi, tinglovchiga hurmati kabi maʼnolar ifodalanilgan.

### II shaxs birligi -**sen**.

Kishilik olmoshlarining I va IIshaxs birlik shakllariga (men, sen) odatda koʻplik shakllari –lar qoʻshilmaydi. Chunki bu shakllar yakka shaxsni anglatib, bu shakllarning koʻpligi uchun maxsus shakllar mavjud(biz, siz).

Lekin “Oʻgʻuznoma” da II shaxs koʻpligi uchun II shaxs birligi senga –lar affiksini qoʻshish bilan hosil qiluvchi senlar shakli qoʻllangan:

Men **senlarga** boʻldim qagʻan.

### III shaxs birligi -ul.

Kishilik olmoshlarining III shaxs birligi eski oʻzbek tilida alif vov-u lom orqali yozilgan. Bu olmosh ol tarzida yoki shevalarda ul, ayrimlarida ol tarzida talaffuz qilingan boʻlishi ham mumkin. Lekin bu haqida aniq maʼlumotga ega emasmiz.

I shaxs koʻpligi-biz,bazan bizlar.

Kishilik olmoshlarining I shaxs ko‘pligi shakli ba‘zan I shaxs birligi o‘rnida qo‘llanilib, kamtarlik ma’nosini bildiradi.

**Bizdin** eshitsin emdi jahon taza namalar.

II shaxs ko‘pligi-siz, bazan sizlar.

Siz olmoshi II shaxs birligi ma’nosida ham qo‘llanilib, tinglovchiga nisbatan hurmatni bildiradi: Sulton Ahmad beg **sizni** padshah ko`raturur.

III shaxs ko‘pligi- ular, alar, anlar.

XIII\_XIV asrlarga oid manbalarda asosan anlar shakli qo‘llanilgan. Alar, ular shakllari qo‘llanilishi esa ancha chegaralangan bo‘lib, ayrim manbalarda uchraydi. XV -\_XVI asrlarga oid manbalarda alar shakli uchraydi. XVII-XIX asrlarga oid manbalarda alar bilan bir qatorda anlar, ular shakllarining qo‘llanilishi ham ancha faollashgan. Lekin bu davrda ushbu shakllarning qo‘llanilishida ma’lum darajada hududiy farqlanish yuzaga kelgan. Masalan, alar, anlar shakllari, asosan, Xorazmda yaratilgan asarlarda, ular shakli asosan Qo‘qon adabiy muhitiga oid manbalarga qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu hol adabiy tilda sheva xusiyatlarining aks etishi sanaladi.

### O‘zlik olmoshi

Olmoshning bu turi bir so‘z - **o‘z** so‘zidan iborat. Bu olmosh har uchala shaxs, birlik va ko‘plikdagi kishilik olmoshlari o‘rnida qo‘llanib, ko‘pincha shaxsni, ba‘zan narsani ko‘rsatadi. Barcha kelishik affikslari va ba‘zi ko‘makchilar bilan qo‘llanadi.

O‘zlik olmoshining qo‘llanishida quyidagi xususiyatlar mavjud:

1. O‘zlik olmoshi egalik affiksini olib, har uchala shaxs kishilik olmoshini ko‘rsata oladi: *o‘zim-men, o‘zing-sen, o‘zi-u; o‘zimiz-biz, o‘zingiz-siz, o‘zlari-ular.*

Masalan: *Bu o‘zingiz (biz) uchirgan lochinlardan biridir. (G‘.G‘ulom)*

2. Egalik affiksini olgan ot oldidan kelganda, shaxs yoki narsaning egalik affiksidan anglashilgan shaxsga (I,II, yoki III) qarashli ekani ifodalanadi. Bunda

shaxs ma'nosi shaxs affiksi orqali voqealanadi, o'z so'zi esa ta'kidlash uchun qo'llanadi. Masalan: **O'z uyim, o'lan to'shagim.** (Maqol).

3. O'z olmoshi egalik affiksi bilan kelganda:

1, Ish-harakat shu affiks bildirgan shaxsga oidligini ko'rsatadi. Masalan: **O'zing ishlab topganingga o'zing ega bo'lmasang.** (S.Ayniy).

2. 3-shaxs shaklida (o'zi) ish-harakat hech kimning ishtirokisiz bo'lishini, bajarilishini bildiradi. Masalan: **Chiroq o'zi o'chib qoldi.**

3. So'roq mazmunli gaplarda ta'kid, kuchaytirish uchun qo'llanadi. Masalan: **Men o'zi qayerga kelib qoldim?** (I.Rahimov).

4. Biror sabab, maqsad bilan emas, "shunchaki" ma'nosini bildiradi. Masalan: **-Hech nima, - yerga qarab dedi Unsin, - o'zim, shunday.** (Oybek).

5. O'ziga xoslikni bildiradi. Masalan: **Kuzda baliq ovlashning o'z gashti bor.**

6. Qaratqich kelishik bilan qo'llanib, o'xshashlikni alohida ta'kid, qayd bilan bildiradi. Masalan: **Katta o'g'li otasining o'zi. O'ziyam Rohilaginamning o'zi-da.** (E.Rahimov).

O'zlik olmoshi kelishiklar bilan turlanish uchun avval egalik affiksni qabul qiladi: *o'zimning, o'zingni, o'zining; o'zimga, o'zingga, o'ziga; o'zimdan, o'zingdan, o'zidan; o'zimizni, o'zingizni* kabi. Ushbu misollarda o'z olmoshi +egalik qo'shimchasi+kelishik qo'shimchasining yig'ilmasidan iborat.

O'zlik olmoshi hamma gap bo'laklari vazifasida kela oladi. Masalan: **To'yda o'zingiz bosh bo'lasiz xudo xohlasa...**

### **Ko'rsatish olmoshlari**

Ko'rsatish olmoshlari shaxs, narsa yoki belgini ko'rsatish, ta'kidlash uchun ishlatiladi. Ko'rsatish olmoshlariga *u, bu,shu (shul), o'sha (o'shal), ana, mana,* yoki *anovi, mana bu, manavi, ushbu* kabi so'zlar kiradi. Ko'rsatish olmoshlari ot, sifat va ravishlarning o'rnida qo'llanib, ularning o'rinbosarlari hisoblanadi. Shunga ko'ra ular uch guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga ot xarakteridagi ko'rsatish



olmoshlari, ikkinchi guruhga sifat xarakteridagi ko‘rsatish olmoshlari, uchinchi guruhga ravish xarakteridagi ko‘rsatish olmoshlari kiradi.

Ot xarakteridagi ko‘rsatish olmoshlari otlar kabi shaxs yoki narsalarni ularga ishora qilish ko‘rsatish orqali nomlaydi. Masalan: *Yaxshi odam, o‘shaning uyiga boramiz. (Oybek). O‘sha sizmidingiz, buni qarang-a, tanimabman. (S.Ahmad). Ushbu misollarda “o‘shaning va o‘sha olmoshi” otga o‘xshashligini ko‘rishimiz mumkin. Birinchi gapga nazar tashledigan bo‘lsak, gapning birinchi qismida kimningdir yaxshi inson ekanligi ta’kidlanayapti, ikkinchi qismida esa yaxshi inson o‘rniga, “o‘sha” ko‘rsatish olmoshi qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin,*

Sifat xarakteridagi ko‘rsatish olmoshlari narsaning belgisini ifodalaydi. Masalan: *U gullar chitga gul bosuvchi ijodkor rassom qizlarga ilhom berar edi. (A.Muxtor). Ushbu gapda “u gullar” “qaysi gullar” so‘rog‘iga javob bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.*

Ravish xarakteridagi ko‘rsatish olmoshlari narsaning yoki harakatning belgisini ko‘rsatadi. Masalan: *Jo‘raboyev Olimjonni quvvatlab bunday dedi. Shunday o‘lka doim bor bo‘lsin, shunday o‘lka elga yor bo‘lsin. (H.Olimjon). Bu gapda esa “bunday”, “shunday” so‘zlari ravish so‘z turkumiga xosligini ko‘rishimiz mumkin.*

Ko‘rsatish olmoshlari quyidagi leksik-grammatik xususiyatlariga ega:

*U* olmoshi so‘zlovchidan naridagi yoki uzoqdagi kimsa, narsani ko‘rsatish uchun qo‘llanadi. Masalan: *U yerda nima ko‘p past-balandlik. (Shuhrat). U yigitni taniysanmi?*

2) payt, vaqt, on, dam, palla kabi so‘zlar bilan kelganda, so‘z borayotgan narsa, voqea, hodisa va shu kabilarning boshqasi bilan ayni shu vaqtda sodir bo‘lganligini bildiradi. Masalan: *Naq shu pallada darvozadan katta qora sigir shatoloq otib, orqasidan bir kishini surib kirdi. (Oybek).* 3) o‘zi birikib kelgan so‘z, bildirgan shaxs, narsa, vaqt va shu kabilarni alohida qayd etadi, ta’kidlaydi.

Masalan: *Paxta rejasi **shu** yil ham bajarilsa, yaxshi bo‘lardi.* 4) kesim vazifasida kelib, shaxs, narsa-hodisalarning aynan shu gap bildirgan narsa ekanini qayd etadi. Masalan: *Aytadigan gapim – **shu**..*

Eski o‘zbek tilida bu olmosh *shul* shaklida qo‘llangan. Masalan: ***Shul** erur aybim, Muqimiy, mardumi Farg‘onaman (Muqimiy). Adolatingizdan bizning talabimiz **shul!**-dedi [Otabek] va qo‘rboshiga qaradi. (A.Qodiriy).*

*O‘sha* olmoshi uzoqdagi, avval tilga olingan kimsa yoki narsani, o‘rin, paytni ko‘rsatish, aytib o‘tilgan, avvaldan ma‘lum bo‘lgan biror hodisani eslatish, unga ishora qilish uchun xizmat qiladi. Masalan: *Bu shodu xurramlikni tug‘dirgan yana **o‘sha** suv edi. (M.Ismoilij).*

Eski o‘zbek tilida va she‘riyatda bu olmosh *o‘shal* shaklida ham qo‘llanadi. Masalan: ***O‘shal** kishining o‘g‘liman degin (M.Osim).*

*Ushbu* olmoshi ham *bu* olmoshi kabi so‘zlovchiga yaqin, uning ko‘z o‘ngidagi, oldidagi, qo‘lidagi narsani ifodalaydi yoki unga ishora qiladi. Masalan: *Yovga qarshi g‘azab-la Chaqnar edi ko‘zlar, Hamon mening esimda Uning **ushbu** so‘zlari (Z.Diyor)*

*Ana* olmoshi ko‘z o‘ngida turgan, o‘zidan nariroqda bo‘lgan narsani yoki yuz berayotgan voqea-hodisani ko‘rsatishda ishlatiladi: *Ahmad qani? **Ana**, kelayapti. Ana* olmoshi yuklama vazifasida ham qo‘llanadi. Masalan: ***Ana**, endi borsang bo‘ladi. (S.Ahmad). **Ana** tantana-yu, mana tantana.* Bu olmosh *bu, shu* ba‘zan *u* olmoshlari bilan birga qo‘llanib, so‘zlovchidan nariroqda bo‘lgan narsa, shaxs yoki belgini ko‘rsatadi. Masalan: *Men **ana-u** so‘qmoqdan yursam ham bo‘ladi. (A.Qahhor).* *Ana* so‘zi *bu, shu,* (ba‘zan *u*) olmoshlari bilan birga qo‘llanib, o‘zidan naridagi tilga olib o‘tilgan, o‘tgan narsa, hodisalarni ko‘rsatadi, unga ishora qiladi. Masalan: *Sizni so‘ragan **ana shu** kishi edi.*

*Mana* so‘zi *bu* olmoshiga qo‘shilib, quyidagi ma‘nolarni ifodalaydi: a) so‘zlovchiga yaqin bo‘lgan narsaning belgisini ko‘rsatadi. Masalan: ***Mana bu** omonatingiz. **Mana bu** shu yerda oldirgan suratlari. (A.Qahhor); b) –day, -(d) aqa* affikslarini olgan ko‘rsatish olmoshlari bilan birga kelib, so‘zlovchiga yaqin

bo'lgan holatni ko'rsatadi. Masalan: ... *obro' to'g'risida mana bunaqa tashvish tortib o'tirishning ham ma'nosi qolmadi.* (A.Qahhor).

*Bu so'z shu olmoshi bilan birga qo'llanib, o'rin yoki vaqt nuqtai nazaridan so'zlovchiga juda yaqin bo'lgan narsa, shaxs yoki belgini ko'rsatish uchun qo'llanadi.* Masalan: **Mana shu** gaplarni aytib berasiz.

*Ana, mana so'zlariga bu, u olmoshlari qo'shilishi natijasida fonetik o'zgarish sodir bo'lib, bu qo'shma ko'rsatish olmoshlari manavi, anavi shaklida ham qo'llanadi.* Masalan: *Elmurodni turtib : -men senga aytgan qizni ko'rsataymi? Ho', anavi, o'rtadagi.* (P.Tursin). Shuningdek, nutq paytida ko'z oldida yo'q, ammo nazarda tutilayotgan shaxs va shu kabilarga ishora qiladi. Masalan: **Anavi** kuni mendan xafa bo'ldingiz-a? (O'.Hoshimov). [Otabek] ... **anavi** gapning aniq shu majlisda ochilishiga ko'zi etib, chiqib ketishning ilojini qilolmadi. (A.Qodiriy).

Ko'rsatish olmoshlari nutqda ko'pincha juftlanib yoki takrorlanib qo'llanadi. Bunday paytda ular quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: 1) payt ma'nosini bildiradi. Masalan: **Shu-shu** ishimiz yurishib ketdi. 2) «hech o'zgarishsiz», «bir xil», «qadimgicha» degan ma'noni bildiradi. Masalan: *U ancha keksayib qolibdi, ammo fe'l-atvori o'sha-o'sha.* (A.Muxtor).

*U, bu olmoshlari juftlanib kelib, har xil narsa ma'nosini; -dey (-doq), -(d)aqqa affikslarini olib, belgining ortiqligini; -cha affiksini olib miqdorning kamligini bildiradi.* Masalan: **Unday-bunday** gaplarga ishonmaslik kerak. *Men sizga unaqa-bunaqa yaxshilik qilganim yo'q.*

Ko'rsatish olmoshlari tuzilishi ko'raga ikki xil bo'ladi:

1. Sodda ko'rsatish olmoshlari: *u, bu, shu, o'sha;*
2. Qo'shma ko'rsatish olmoshlari: *mana shu, ana shu, mana bu, anavi, (ana-u).*

Bu olmoshlar ma'nosiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Konkret ko'rsatish olmoshlari: *shu, o'sha;*
2. Konkret bo'lmagan ko'rsatish olmoshlari: *u, bu.*

Konkret ko'rsatish olmoshlari so'zlovchi va tinglovchiga oldindan ma'lum bo'lgan narsa yoki voqeani ifodalash uchun qo'llanadi: *o'sha (uy), o'sha (bino), o'sha (maktab); shu (yigit), shu (voqea), shu (qiz), shu (kitob)* kabi.

Konkret bo'lmagan ko'rsatish olmoshlari noaniq narsa, notanish shaxs yoki voqealarni ko'rsatish uchun xizmat qiladi: *bu (gap), bu (ish), bu (fikir); u (hodisa), u (uchrashuv), u (ko'cha), u (yo'l)* kabi.

Ko'rsatish olmoshlari quyidagi gap bo'laklari vazifasida keladi:

a) ega vazifasida (otlashganda): *U mendan bir yosh katta;*

b) kesim vazifasida: *Uning bo'lgan-turgani- shu. Aytadigan gapim – shu.*

v) aniqlovchi vazifasida: *Nima ish bo'lganini shu odam biladi. O'sha jilva va o'sha otash, O'sha ko'zki, suzgin, xayolkash... (H.Olimjon).*

g) to'ldiruvchi vazifasida: *Buni hamma bilishi kerak. Undan hamma o'rnak olishi lozim.*

### So'roq olmoshi

Eski o'zbek tilida so'roq olmoshlari kata guruhni tashkil etib, bular tuzilishi jihatdan tub yoki tartibli so'zlarga iborat. Tubso'roq olmoshlarini kim, ne//na tashkil etadi. Tarkibli so'roq olmoshlarining bir guruhi na so'roq olmoshi asosida hosil bo'lgan: nrga, nedin, nechun, nevchun, nechuk, neluk, netak, nek, nega, nesha so'roq olmoshlari shu guruhni tashkil qiladi.

### Belgilash olmoshlari

Belgilash olmoshlari narsa va shaxslarning yig'indisini, to'dasini bildiradi yoki ularni ayirib, ko'rsatadi. shunga ko'ra ularni ikki kichik guruhga ajratish mumkin: a) jamlash olmoshlari; b) belgilash olmoshlari.

1. **Jamlash olmoshlari** jamlikni ifodalaydi. Bunday olmoshlarga *hamma, barcha, jami, bari, butun, yalpi, ba'zi* so'zlari kiradi.

2. **Belgilash olmoshlariga** *har* so'zi va ayrim so'roq olmoshlari, shuningdek, *bir, narsa* kabi so'zlar bilan qo'shilishidan hosil bo'ladi.

Eski o'zbek tilida ham hozirgi o'zbek tilida ham belgilash olmoshlarining sodda va murakkab shakllari istemolda bo'lgan. Sodda shakli *har*. Murakkab shakllari esa

har soʻziga soʻroq olmoshlarining birini qoʻshish yoʻli bilan hosil boʻladi: har nima, har qaysi, harna kabi. Oldinga davrlarda belgilash olmoshining tekma shakli ham isteʼmolda boʻlgan.

### Boʻlishsizlik olmoshlari

Shaxs, narsa, harakat, belgi-xususiyat, miqdor, oʻrin-joy, paytga nisbatan inkorni bildiradigan olmoshlar boʻlishsizlik olmoshlari deb ataladi. Boʻlishsizlik olmoshlari maʼno xususiyatlariga koʻra quyidagi koʻrinishlarga ega:

№	I n k o r t u r i	O l m o s h l a r
1 .	Shaxsga nisbatan inkor	<i>h e c h k i m</i>
2 .	Narsaga nisbatan inkor	<i>h e c h n i m a , h e c h n a r s a</i>
3 .	Belgi-xususiyatga nisbatan inkor	<i>h e c h q a n d a y , h e c h q a n a q a , h e c h q a y s i</i>
4 .	Miqdorga nisbatan inkor	<i>h e c h q a n c h a</i>
7 .	Oʻrin-joyga nisbatan inkor	<i>h e c h q a y e r d a , h e c h q a y d a , h e c h q a y o q q a</i>
8 .	Paytga nisbatan inkor	<i>h e c h q a c h o n</i>

Demak, boʻlishsizlik olmoshlari *hech* olmoshiga ot, sifat va ravishlarning soʻroqlarini ifodalovchi soʻzlarni qoʻshish orqali yasaladi.

*Hech* soʻzining oʻzi ham yakka holda olmoshlik vazifasini bajaradi. Shunga koʻra boʻlishsizlik olmoshlari ikki turga boʻladi: a) tub soʻz shaklidagi boʻlishsizlik olmoshi; b) qoʻshma soʻz shaklidagi boʻlishsizlik olmoshi.

Tub soʻz shaklida qoʻllanadigan boʻlishsizlik olmoshiga ***hech*** soʻzi kiradi

Qoʻshma soʻz shaklidagi boʻlishsizlik olmoshlari esa ***hech*** soʻziga *kim, nima, qachon, bir narsa* kabi soʻzlarning qushilishidan hosil boʻladi.

*Hech* olmoshi *boʻlmasa* soʻzidan oldin kelib, loqal, aqallidarajadagi shart maʼnosini bildiradi. Masalan: *Ma, bir hoʻpla, hech boʻlmasa!* (E.Raimov). ***Hech***

*bo'lmasa, siz shu yerda bo'lsangiz ham uning yo'qligini bilintirmay turardingiz. (S.Zunmunova).*

Eski o'zbek tilida ham bo'lishsizlik olmoshlari tuzilishiga ko'ra soda va murakkab shakllardan iborat. Soda shaklini hech so'zi tashkil etadi. Murakkab shakllari hech so'ziga so'roq olmoshlaridan yo gumon olmoshlaridan birining yoki narsa so'zining birikishi asosida hosil bo'ladi: hech kim, hech narsa, hech kimsa kabi.

Bo'lishsizlik olmoshining murakkab shakllaridan bir guruhi shaxsga nisbatan, boshqa guruhi narsa, narsa, voqea-hodisaga nisbatan qo'llaniladi. Bo'lishsizlik olmoshining murakkab shakllari kelishik qo'shimchalari bilan ishlatiladi

*Hech nima* olmoshi ham otlar o'rnida kelib, otlarga xos egalik va kelishik affikslarini oladi: *hech nimaning, hech nimani, hech nimaga, hech nimada, hech nimadan; hech nimam, hech nimang, hech nimasi; hech nimamiz, hech nimangiz, hech nimasi(lari).*

### **Gumon olmoshlari**

Gumon olmoshlari narsa, belgi yoki voqea haqidagi noaniq tasavvurni bildirib keladigan olmosh turidir.

Gumon olmoshlari asosan ot va sifat xarakterida qo'llanadi.

Gumon olmoshlari bir necha yo'l bilan yasaladi.

I. *Alla* elementi ayrim so'roq olmoshlari bilan qo'shilib, qator gumon olmoshlarini yasaydi: *allakim, allanima, allaqanday, allaqaysi, allaqancha, allanecha* kabi.

II. Gumon olmoshi ko'pincha so'roq olmoshlariga *-dir* elementini qo'shish orqali hosil qilinadi. Bu shakldagi gumon olmoshlari ot, sifat, ravish xarakterida bo'ladi: *kimdir, nimadir, qandaydir, qaysidir, qachondir, qayergadir, qayerdandir, qaydandir* kabilar.

III. *Birov* so'zi birgalik sonni yasovchi *-ov* affiksining *bir* soniga (*bir-ov*) qo'shilishidan hosil qilingan va asosan gumon olmoshlari kabi ma'no

ifodalaydigan soʻzdir. Bu olmosh quyidagi maʼnolarni ifodalaydi: a) kimligi nomaʼlum, qandaydirbir shaxs, noaniq odam, kimdir degan maʼnoni ifodalaydi. Masalan: *Birni **birov** beradi, Koʻpni- mehnat. (Maqol). **Birov** bilganini maqtar, **birov** – koʻrganini. (Maqol). **Birov** borkim, boru-bor boʻlsa ham yoʻq, **Birov** borkim, yoʻgʻu – yoʻq boʻlsa ham toʻq. (Habibiy);* b) boshqa bir shaxs oʻzga, begona maʼnosini ifodalaydi. Masalan: *Bolaxonada ikkalamiz turganimizni tagʻin **birov** koʻrib qolmasin. (Hamza). **Birovning** koʻngliga zoʻrlilik bilan egalik qilib boʻlmaydi. (S.Ahmad);* v) *baʼzi* soʻzi bilan kelib, oʻzgalar, boshqalar, begonalar kabi maʼnolarni ifodalaydi. Masalan: *Baʼzi **birovlar** ushlab qoʻlini, Topolmay ovora boʻlarlar yoʻlini. (Qoʻshiqdan).*

IV. *Baʼzi* soʻzi koʻplik affiksini olib, gumon olmoshi vazifasida kela oladi: *baʼzi odamlar, baʼzi gaplar, baʼzi joylar* kabi. *Baʼzi* soʻzi “kimdir, allakim“ degan maʼnolarni ifodalaydi. Masalan: *Buni eshitib **baʼzilar** qotib-qotib kular, **baʼzilar** boʻgʻilar edi. (A.Qahhor). Xotinlarning **baʼzilari** qiziqqanlaridan chachvonlarini qiya ochib, Yoʻlchiga yashirincha moʻralashadi. (Oybek).*

V. *Falon* soʻzi narsa, shaxs yoki voqea-hodisa, ular haqidagi biror xususiyat, belgini aniq bildiruvchi soʻzlar oʻrnida qoʻllanib, noaniq tasavvurni bildiradi. Masalan: ***Falon** vaqtda kelaman desa, tamom, kelmasdan qoʻymasdi. (Oʻ.Umarbekov). **Falon** hovlida boʻyi etgan qiz bor, degan gapni eshitib, koʻzimiz oʻynar, lekin yuzini koʻrmasdik. (P.Tursun).*

Biror xususiyat yoki hodisaning, jarayonning miqdoran juda ortiqligini, yuqori darajada ekanligini bildiradi. Masalan: *Eng yomoni – shaharda qovun etishmayotgan ekan, bir tilimi **falon** pul emish. (X.Toʻxtaboyev). Siniqchiga yuborishni oʻzim ham bilaman. U **falon** pul soʻraydi. (S.Siyoyev).* Badiiy asarlarda uslubiy nuqtai nazardan bu soʻz *faloncha* shaklida ham ishlatiladi. Masalan: *Shu bilan birga yerdan olinadigan hosilni **faloncha** deb chegaralab ham boʻlmaydi. (Gazetadan).*

*Falon* soʻzi *-chi* affiksini olib, shaxsni aniq atamasidan, uning ismi oʻrnida ishlatiladi. Masalan: ***Falonchi***, *ota-onasi boʻlmasa ham, oʻksimay oʻsdi, deyishadi.* (Oʻ.Hoshimov). *Yozganda ham, falonchini maqtayman, degan oʻyim boʻlgan emas.* (M.M.Doʻst)<sup>23</sup>.

Eski oʻzbek tilida gumon olmoshlarining quyidagi shakllari istemolda boʻlgan: kimsa, kimarsa, neersa, biragu, birav, falan.

Gumon olmoshlarining bir guruhi shaxsga nisbatan, boshqa guruhi narsa, jonivor, voqea-hodisalarga nisbatan qoʻllanadi, baʼzilari har ikkala maʼnoda ham qoʻllanadi.

Gumon olmoshlarining koʻpchiligi kelishik qoʻshimchalari bilan ham ishlatiladi, ayrimlariga koʻplik va egalik affikslari ham qoʻshilishi mumkin.

Olmoshdan leksik maʼno emas, balki mavhum grammatik maʼno anglashiladi.

Har bir lugʻaviy leksemalar turkumining oʻz soʻroq olmoshlari boʻladi:

1) ot soʻroq olmoshlari: *kim-*, *nima*;

2) sifat soʻroq olmoshlari: *qanday*, *qanaqa*, *qaysi*;

3) sonsoʻroq olmoshlari: *necha*, *qancha*, *nechtadan*, *nechanchi*;

4) ravish soʻroq olmoshlari: *qachon*, *nega*, *nimaga*, *nechuk*, *qanday qilib*, *qay tarzda*;

5) feʼl soʻroq olmoshlari: *nima qildi*, *nima qiladi*, *nima qilayotir*.

Olmoshlarning quyidagi maʼno turlari soʻroq olmoshlari asosida hosil qilingan:

1. Gumon olmoshlari:

1) soʻroq olmoshi oldiga *alla-* affiksoidini qoʻshib: a) ot soʻroq olmoshiga: *allakim-*, *allanima-*, b) sifat soʻroq olmoshiga: *allaqanday*, *allaqaysi*, d) son soʻroq olmoshiga: *allaqancha*, *allanechanchi*, e) ravish soʻroq olmoshiga: *allaqachon* kabi;

---

<sup>23</sup> Qalandar Sapayev "Hozirgi oʻzbek tili" 122-130-betlar



2) so‘roq olmoshi oxiriga *-dir* gumon yuklama-affiksini qo‘shib: a) ot so‘roq olmoshiga: *kimdir, nimadir*, b) sifat so‘roq olmoshiga: *qandaydir, qaysidir*, d) son so‘roq olmoshiga: *qanchadir, nechanchidir*; e) ravish so‘roq olmoshiga: *qachondir, negadir, nimagadir* kabi.

*-dir* asli gumon yuklamasi bo‘lgani sababli ot so‘roq olmoshiga sonlovchi va turlovchi affiksdan keyin qo‘shiladi: *kimlargadir* kabi.


2. Belgilash olmoshlari so‘roq olmoshlaridan oldin *har* ta’kidlov affiksoidini keltirib hosil qilinadi: a) ot so‘roq olmoshi oldidan: *har kim-, har nima-*, b) sifat so‘roq olmoshi oldidan: *har qanday, har qaysi*, d) son so‘roq olmoshi oldidan: *har qancha*, e) ravish so‘roq olmoshi oldidan: *har qachon* kabi.

*Hamma, barcha, bari* kabi leksemalarni olmoshlar qatoridan chiqarib, *ko‘p, bir talay* kabi miqdor ravishlari qatoriga qo‘shish to‘g‘ri, chunki bular mavjud miqdordagi kabi leksik ma’noni anglatadi.

3. Bo‘lishsizlik olmoshlari so‘roq olmoshlari oldidan *hech* inkor affiksoidini keltirib hosil qilinadi: a) ot so‘roq olmoshi oldidan: *hech kim-, hech nima-*, b) sifat so‘roq olmoshi oldidan: *hech qanday, hech qaysi*, d) son so‘roq olmoshi oldidan: *hech qancha*, e) ravish so‘roq olmoshi oldidan: *hech qachon* kabi.

Yuqoridagi tasvirdan anglashiladiki, gumon olmoshlari, belgilash olmoshlari, bo‘lishsizlik olmoshlari o‘z ichida ot olmosh, sifat olmosh, son olmosh, ravish olmosh turlariga ajratiladi. Olmoshlarning grammatik tabiati qaysi turkum olmoshi ekaniga bog‘liq.

Kishilik olmoshlari ot olmoshlarning maxsus turi bo‘lib, shaxs, son, o‘rni bilan modal ma’nomlarni ifodalaydigan quyidagicha paradigmani hosil qiladi:



$u \ \emptyset - \longleftrightarrow ular\ 1- \longleftrightarrow ular\ 2-$

Kishilik olmoshlarining bu paradigmasida shaxs, son, o'zni bilan modal ma'nolarning ifodalanishi quyidagicha:

1) *men-*, *sen-* olmoshlarida shaxs va son ma'nosini olmosh asosining o'zi ifodalaydi. Tarixan shaxs ma'nosini bu olmoshlarning *m-*, *s-* qismi, son ma'nosini *n* qismi bildirgan bo'lsa ham, hozirgi o'zbek tilida bu olmoshlar tarkibi ma'noli qismlarga ajratilmaydi.

2) *biz-*, *siz-* olmoshlari ham xuddi shunday baholanadi: Tarixan shaxs ma'nosini *b-*, *s-* qismi, son ma'nosini *-z* qismi bildirgan bo'lsa ham, hozirgi o'zbek tilida bu olmoshlar ma'noli qismlarga ajratilmaydi.

3) *biz-*, *siz-* olmoshlari birlikni ifodalash uchun ham ishlatila boshlagani sababli, ko'plik<sup>24</sup>ni ochiq ifodalash maqsadi bilan bo'lsa kerak, bu olmoshlarga *-lar* ko'plik affiksini qo'shib ishlatish yuzaga kelgan. Bunday ishlatishda (*bizlar-*, *sizlar-*) *biz-*, *siz-* asoslari shaxs ma'nosini, *-lar* affiksi esa son ma'nosini ifodalaydi, demak, bu ma'nolarni olmosh tarkibidagi boshqa-boshqa qismlar bildiradi.

4) I, II shaxs olmoshlaridan farqli holda III shaxs olmoshi *u-* kishilik-narsa olmoshi deyiladi. Bu olmosh asli ko'rsatish olmoshidan o'sib chiqqanini hisobga olib, uni kishilik-ko'rsatish olmoshi deb baholash ham mavjud. Hozirgi o'zbek tilida *u-* II kishilik-narsa olmoshi bilan *u-* I ko'rsatish olmoshini omoifodalar deb qarash to'g'ri.<sup>25</sup>

*u-* kishilik-narsa olmoshining asosi I, II shaxs birlik kishilik olmoshlaridan farqli holda faqat shaxs ma'nosini bildiradi, son ma'nosini unga qo'shiladigan nol ko'rsatkichli morfema ifodalaydi; bu yerda nol ko'rsatkichli morfema shu olmosh asosiga ko'plik ma'nosini ifodalash uchun qo'shiladigan *-lar* affiksi bilan

---


<sup>25</sup> Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоқлардан фойдаланиш. - Пед. фан.номзоди ... ёзилган дисс. – Т., 1996. – 8-бет.

zidlashda belgilanadi:  $u + \emptyset \leftrightarrow u + lar-$ . Demak, III shaxs kishilik-narsa olmoshida shaxs ma'nosini asos, son ma'nosini esa grammatik ko'rsatkich ifodalaydi.

5) *biz- 2 – bizlar-*, *siz- 2 – sizlar-* munosabatida ham yuqoridagi kabi hodisani ko'ramiz:  $biz\ 2 + \emptyset \leftrightarrow biz + lar-$ ,  $siz\ 2 + \emptyset \leftrightarrow siz + lar-$ .

Adabiyotlarda ko'rsatish olmoshlari nomi bilan *bu, shu, u, o'sha, mana, anabirliklari* keltiriladi. Bular haqiqatda ko'rsatish ma'nosini ifodalaydi, lekin biror leksemaga olmosh bo'lib kelmaydi. Shunga ko'ra ularni olmosh deyish to'g'ri bo'lmaydi, shartli ravishda ko'rsatish birliklari deb nomlash mumkin.<sup>26</sup>

Ko'rsatish birliklari o'zaro quyidagicha oppozitiv munosabat hosil qiladi:



<sup>26</sup>G'ani Abdurahmonov va boshqalar "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" Toshkent-2008.167-168-betlar

Ko'rsatish birliklari tizimining asosini *bu, shu, u, o'sha* tashkil qiladi; *bu, shu* oldidan *mana* birligini, *u, o'sha* oldidan *ana* birligini keltirish bilan ko'rsatish ma'nosi ta'kidlanadi.

Ko'rsatish birliklari sifat tabiatli bo'lgani uchun ularda shakl hosil qilish yo'q.

O'zlik olmoshi deb ataladigan *o'z-* birligi biror leksemaga olmosh bo'lib kelmaydi, balki odatda ma'lum bir leksemaga bog'lanib, ta'kid ma'nosini ifodalaydi: *men o'zim-* (< *mening o'zim-*), *o'zim-*; *akam o'zi-* (< *akamning o'zi-*); *o'z so'zida* (< *o'zining so'zida*) kabi. Shunga ko'ra bu birlikni ta'kid birligi deb atash ma'qul.

*O'z-* birligi aslida ot leksema bo'lgan, shunga ko'ra nisbatlovchi va turlovchi affikslarni oladi, lekin grammatik son paradigmasining faqat birlik shaklida ishlatiladi.

### **Bo'lishsizlik olmoshlari**

Eski o'zbek tilida ham bo'lishsizlik olmoshlari tuzilishiga ko'ra sodd va murakkab shakllardan iborat. Sodda shaklini hech so'zi tashkil etadi. Murakkab shakllari hech so'ziga so'roq olmoshlaridan yo gumon olmoshlaridan birining yoki narsa so'zining birikishi asosida hosil bo'ladi: hech kim, hech narsa, hech kimsa kabi.<sup>27</sup>

Bo'lishsizlik olmoshining murakkab shakllaridan bir guruhi shaxsga nisbatan, boshqa guruhi narsa, narsa, voqea-hodisaga nisbatan qo'llaniladi. Bo'lishsizlik olmoshining murakkab shakllari kelishik qo'shimchalari bilan ishlatiladi.

Olmoshlar quyidagi grammatik xususiyatlari bilan boshqa so'z turkumlaridan farq qiladi va o'zi alohida mustaqil so'z turkumini tashkil etadi:

1. Ot, fe'l, sifatlarda so'z yasaliş hodisasi kuchli bo'ladi, olmoshlarda esa juda kuchsizdir. Olmoshlarning o'ziga xos so'z yasovchi qo'shimchalari yo'q -

---

<sup>27</sup> Sh. Rahmatullayev "Hozirgi adabiy o'zbek tili" Toshkent "Universitet" 2006. 210-bet

boshqa soʻz turkumlaridan yasovchi yordamida olmoshlar yasalmaydi. Lekin olmoshlardan ayrim yasovchi affikslar yordamida boshqa soʻz turkumlariga xos boʻlgan soʻzlar yasalishi, shuningdek, tarkibiga olmoshlar qoʻshilgan holda qoʻshma soʻzlar hosil qilinishi mumkin: *senbop, har zamon, hech qachon, shu vaqt, oʻzbilarmon, har kim, hech kim, har nima, hech nima* kabi.

2. Olmoshlar otlarga xos soʻz oʻzgaruvchilarni qabul qiladi.

1) kelishik affikslarini oladi. Bunda olmoshlar doim belgili qoʻllanishi bilan boshqa soʻz turkumlaridan farqlanadi. Baʼzi olmoshlarga kelishik qoʻshimchalari qoʻshilganda, oʻzakda ayrim fonetik oʻzgarishlar sodir boʻladi: *men-ni – meni, sen-ning – sening, u-ga-unga, shu-da – shunda* kabi;

2) olmoshlarning egalik affikslarini olib qoʻllanishida ayrim xususiyatlar mavjud: koʻrsatish olmoshlari I va II shaxs birlik va koʻplik, shuningdek, III shaxs koʻplikdagi egalik qoʻshimchalarini *bir darajali* qabul qiladi: *bun-im, shunim-iz, uning-iz* kabi.

Koʻrsatish olmoshlarining III shaxs birlik shaklida esa egalik qoʻshimchasi *ikki darajali* boʻlib keladi: *u – unisi, shu –shunisi, bu –bunisi*, kabi. *Qaysi, necha* soʻroq olmoshlari otlashib II va III shaxs birlik, I, II, III shaxs koʻplikda egalik qoʻshimchalarini olib kelsa ham I shaxs birlikda (garchi ular otlashgan boʻlsa ham) egalik qoʻshimchalarini olmaydi. *Qaysi* olmoshining oʻzagi, aslida *qay* boʻlib, uning tarkibida egalik affiksi borday koʻrinsa ham (*qay-i-si, qay-u-si*) hozirgi tilda yana bir egalik qoʻshimchasi qoʻshib ishlatiladi. (*qaysisi*);

3) koʻplik qoʻshimchasini qabul qilishda ham olmoshlar oʻziga xos xususiyatga ega. I shaxs birlikdagi kishilik olmoshi *-lar* shakl yasovchisi bilan birga qoʻllanmaydi. II shaxs birlikdagi kishilik olmoshi *-lar* affiksi bilan qoʻllanganda (*senlar*) koʻpincha tinglovchiga hurmatsizlik bilan mensimay qarash – **familyar** munosabat ifodalanadi. I va II shaxs koʻplikdagi kishilik olmoshlari (*biz, siz*) ga – *lar* qoʻshilib kelganda esa, soʻzlovchi va tinglovchining koʻpligini emas, bir soʻzlovchi va boshqalar, bir tinglovchi va boshqalarni ifodalaydi. III shaxs kishilik olmoshining birlik shakli bitta oʻzga (boshqa shaxs) ni, koʻplik shakli koʻp oʻzga

(boshqa shaxslar)ni ifodalaydi. Ot xarakteridagi so‘roq olmoshlariga *–lar* affiksi qo‘shilganda ko‘plik va bir shaxsga hurmatni bildiradi. Bunday olmoshlar juftlanib ham ko‘plikni ifodalashi mumkin: *Kim-kim keldi? Nima-nima olding?* Ba‘zan takrorlangan bunday olmoshlardan keyin ham *–lar* affiksi qo‘shilib kela oladi: *Kim-kimlar keldi? Nima-nimalar olding?* *–lar* affiksi ayrim so‘roq olmoshlariga qo‘shilganda taxmin, chama kabi ma’nolar anglashiladi: *Soat nechalar bo‘ldi? Yoshi nechalarda?*

*Qachon* so‘roq olmoshi *–lar* affiksini olib «ko‘p vaqt» degan ma’noni ham ifodalay oladi (ma’noni kuchaytiradi). *Kelganim qachonlar edi.*

3. Olmoshlarni gapda bajargan vazifasiga ko‘ra 4 guruhga ajratish mumkin:<sup>28</sup>

- a) *ot xarakteridagi olmoshlar;*
- b) *sifat xarakteridagi olmoshlar;*
- v) *ravish xarakteridagi olmoshlar;*
- g) *son xarakteridagi olmoshlar.*

Olmoshning sintaktik xususiyatlariga ko‘ra boshqa so‘z turkumlaridan ajralib turadigan asosiy farqlaridan yana biri shuki, olmosh hech vaqt o‘zidan oldin aniqlovchi olmaydi. Masalan: *men, sen, biz, shu, necha, kim, nima* kabi olmoshlar bironta aniqlovchi bilan birga qo‘llanmaydi. Ot o‘rnida qo‘llanuvchi olmoshlar otlarga o‘xshash so‘z o‘zgartiruvchilarni qabul qiladi va gapda ot bajargan vazifani bajaradi – ega, to‘ldiruvchi, qaratqichli aniqlovchi, ba‘zan kesim bo‘lib keladi. Masalan: ***Biz*** *shonli yo‘lni bosib o‘tdik. (A.Muxtor).* ***Hamma*** *hosilotning so‘zlarini diqqat bilan tinglardi-yu, hammaning ko‘nglida turli-tuman fikr kechardi. (Sh.Rashidov).*

Sifat xarakteridagi olmoshlar (*qanday, qaysi, bu, shu, shunday...*) sifatlar kabi ot oldida kelib, gapda sifatlovchi aniqlovchi va ba‘zan kesim, hol bo‘lib keladi. Bunday olmoshlar sifatlarga o‘xshash otlashib gapning boshqa bo‘laklari vazifasida kelishi mumkin. Masalan: *U Nazokatning qaysi daha, qaysi mahallalik*

---

<sup>28</sup>Ra‘no Sayfullayeva va boshqalar “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent-2009

ekanini, Namanganning **qaysi** qishlog‘ida qanday urug‘lari borligini surishtirdi. (A.Muxtor); Umidimiz – **shu**. (A.Qahhor).

Son xarakteridagi olmoshlar (*necha, nechanchi, qancha*) sonlarga o‘xshash miqdorni ifodalash uchun qo‘llanadi va gapda sifatlovchi – aniqlovchi yoki kesim bo‘lib keladi: **Nechanchi** uyda turasiz? **Yoshingiz nechada?**

Ravish xarakteridagi olmoshlar (*nega, qalay, qani*) ravishga o‘xshash harakat belgisini ifodalaydi va gapda hol, kesim vazifasini bajaradi: **Nega** kulasiz? **Ahvollari qalay?** **Aytganing qani?** Olmoshlar ergashgan qo‘shma gap tarkibida nisbiy so‘z vazifasida keladi. Nisbiy so‘z vazifasida so‘roq va javob tarzida (*kim-u, qancha-shuncha, qayerda – shu yerda* kabi) ishlatiladi. Masalan: **Kim** ko‘p ishlasa, **u** ko‘p haq oladi. **Qancha** ko‘p kuch sarf qilsang, hosil **shuncha** mo‘l bo‘ladi. **Qayerda** uyushqoqlik bo‘lsa, **shu yerda** unum ko‘p bo‘ladi (A.Qahhor). Ayrim olmoshlar bog‘lovchi so‘zlar tarkibida keladi: *shuning uchun, unday bo‘lsa, unda, buning natijasida* kabi.

Olmoshlar yana quyidagi xususiyatlarga ega:

1) so‘z yasaliş xususiyati yo‘q (lekin olmoshlar asosidan ot, fe‘l, ravish, sifat yasalişı mumkin: *o‘zlik, sizsirama, o‘zicha, menbop*);

2) juftlanib, boshqa so‘z turkumi vazifasida keladi: *o‘sha-o‘sha, shu-shu* (ravish);

3) olmoshlar otlarga xos so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarni olishi mumkin: *unga, shunisi*;

4) olmosh hech vaqt o‘zidan oldin aniqlovchi olmaydi.

Turkiy tillarda bo‘lishsizlik olmoshlari nisbatan keyingi davrlarda qo‘llana boshlangan. Chunki hech so‘zi eron tillariga mansub bo‘lib, uning o‘zlashtirilishi turkiy tillar taraqqiyotining ma‘lum davrlariga to‘g‘ri keladi. Masalan, hech so‘zining qo‘llanilishi dastlab XI asr yodgorligi “Qutadg‘u bilig”da uchraydi.

Lekin bu soʻz boʻlishsizlik olmoshi sifatida yozma manbalarda XIII-XIV asrlardan keng qoʻllanila boshlangan. Hech soʻzi ishtirokida hosil boʻlgan murakkab turdagi boʻlishsizlik olmoshlarining yozma manbalarda qoʻllanishi shu davrdan boshlab kuzatiladi.<sup>29</sup>

---

<sup>29</sup> M. Hamrayev . Ona tili maʼruzalar matni. T., 2007 –yil. 3-bet.



## II Bob. TA'LIM BOSQICHLARIDA OLMOSH SO'Z TURKUMINI O'QITISH METODIKASI

### 2.1. Umumta'lim maktablarida olmosh so'z turkumining berilishi.

Maktab darsliklari to'g'risida so'z yuritadigan bo'lsak yuritadigan bo'lsak umumta'lim maktablari 1-9-sinflarni o'z ichiga oladi. 5-9-sinflar yuqori sinflar hisoblanadi. Maktab darsligining faqatgina 7-sinfida olmosh haqida ma'lumot berilganini ko'rishimiz mumkin. 7-sinf darsligi 99 dars, 308 mashqdan iborat. 99 darsdan 12 dars olmosh so'z turkumiga ajratilgan. Olmoshga ajratilgan darslar .12-darsdan 24-darsgacha davom etgan.

#### 12-dars. "Olmosh so'z turkumi va uning tasnifi" haqida

Ushbu darsda olmosh so'z turkumi haqida umumiy ma'lumot berib o'tilgan ya'ni o'quvchilarga olmosh o'zi qanday so'z turkumi ekanligi tushunturishga harakat qilingan.

Boshqa so'zlar, shuningdek, so'z birikmasi va gap o'rnida almashinib qo'llaniluvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so'roq bildiruvchi so'zlar olmosh hisoblanadi. Masalan, *Kitobni ko'p o'qisangiz, undan ko'p hikmat topasiz. Istagim shuki, doimo tinchlik bo'lsin.*

Birinchi gapda *undan* olmoshi *kitob* so'zi (ot) o'rnida, ikkinchi gapda *shuki* olmoshi *doimo tinchlik bo'lsin* gapi o'rnida qo'llanilgan.<sup>30</sup>

Olmoshlarning aniq atash ma'nosi bo'lmaydi. Uning qaysi ma'noda kelayotganligi matnda qaysi so'z yoki gap o'rnida almashinib kelishiga qarab belgilanadi.

Olmoshlar ma'nosiga ko'ra quyidagi yetti guruhga bo'linishi;

Olmoshlar turlari

Kishilik olmoshlari: men, sen, u; biz, siz (sizlar), ular

O'zlik olmoshi: o'z

---

<sup>30</sup> Bu ma'lumotlar 7-sinf 12-darsdan olindi.

Ko'rsatish olmoshlari: bu, shu, u, o'sha, ana, mana, mana bu, mana shu, manavi, anovi

So'roq olmoshlari: kim? nima? qayer? qanaqa? qayda? qaysi? qalay? qaneha? neeha? nega?

Belgilash olmoshlari: hamma, barcha, bari, har bir, har nima, har narsa, har qanday, har qaysi

Bo'lishsizlik olmoshlari: hech kim, hech narsa, hech qachon, hech qanaqa, hech qaysi

Gumon olmoshlari: kimdir, nimadir, allakim, allaqanday, qaysidir, allanarsa, allaqancha, allaqaysi

Qoidasi berilganini guvohi bo'lamiz. Ushbu qoidadan ko'rinib turibdiki, boshqa so'z turkumlariga qaraganda olmoshni o'quvchilarga o'rgatish ancha qiyinroq masala hisoblanadi. O'quvchilarning olmosh bilan ot so'z turkumini almashtirib yuborish holatlari yuzaga kelish ehtimoli ham bor. Bunday vaziyatning oldini olish uchun birinchi navbatda o'quvchilarga olmosh o'zi qanday so'z turkumi ekanligi, nima uchun ichi bo'sh so'zlar deyilishini uqtirsak maqsadga muvofiq bo'ladi. 13-darsdan boshlab esa olmoshning har bir turiga alohida ta'rif berib o'tilganini ko'rishimiz mumkin.

### **13-darsda “Ko'rsatish olmoshlari” haqida.**

Oldingi gap, gapdagi biron-bir so'z, s o'z birikmasi o'rnida qo'llanib, unga ishora qiluvchi yoki biror so'zni aniqlab keluvchi olmoshlar ko'rsatish olmoshlari hisoblanadi.

so'z ma'nosini aniqlab keluvchi olmoshlar o'zi aniqlayotgan so'zdan oldin qo'llanadi. Masalan, *Bu daftar meniki.*

*Bu, shu, u, o'sha, ana, mana* kabi so'zlar ko'rsatish olmoshlari sanaladi tabdilidagi qoida va o'quvchilarni qiziqtirish uchun mashqlar berilganini ko'rishimiz mumkin.

### **14-dars “ Ko'rsatish olmoshlarining talaffuzi va imlosi” haqida.**

Yozuvda *mana bu, mana shu, ana bu, ana shu* olmoshlari ajratib yoziladi. Ba'zan bu olmoshlar og'zaki nutqda *manavi, anavi* tarzida talaffuz qilinishi va shunday yozilishi mumkin.

Ushbu mavzuda olmosh turkumidan uchraydigan fonetik o'zgarishlar haqida o'quvchilarga ma'lumot berib o'tilganini ko'rishimiz mumkin.

Egalik, kelishik hamda *-day, -dek, -aqa, -cha* qo'shimchalari qo'shilganda, asos bilan qo'shimcha o'rtasiga bir *n* tovushi orttirib talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Masalan: *shunday, o'shanaqa, buncha*.<sup>31</sup>

### 15-dars "Kishilik olmoshlari" haqida.

Uch shaxsdan biriga ishora qiluvchi olmoshlar kishilik olmoshlari hisoblanadi. So'zlovchi birinchi shaxs, tinglovchi ikkinchi shaxs, nutqdan tashqari barcha shaxs, narsa, voqea-hodisalar o'zga, ya'ni uchinchi shaxs sifatida qaraladi.

*Men, biz* birinchi shaxs, *sen, siz* ikkinchi shaxs, *u, ular* uchinchi shaxs kishilik olmoshlari hisoblanadi. Bulardan *men, sen, u* birlik, *biz, siz (lar), ular* ko'plik ma'nosini bildiradi.

Ba'zan *biz, siz, ular* birlik ma'nosida ham qo'llaniladi. Biz birlik ma'nosida qo'llanganda kamtarlik, bajargan ishida o'zini ta'kidlamaslik ma'nosini bildiradi. Masalan, *Mening uyim o'rniga Bizning uyimiz. Men g'olib chiqdim o'rniga Biz g'olib chiqdik.*

Shuningdek, *siz, ular* yakka shaxsga ishora qilib, hurmat ma'nosini bildiradi. Masalan, *Sen kelding o'rniga Siz keldingiz, U keldi o'rniga Ular keldilar. Siz hurmat ma'nosini bildirganda, ko'pincha ko'plik ma'nosini ifodalash uchun unga -lar qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan, Sizlarga doimo baxt yor bo'lsin.*

*Men, sen* olmoshlariga *-ni, -ning, -niki* qo'shimchalari qo'shilganda, talaffuzda bir *n* tovushi tushib qoladi va shunday yoziladi.

### 16-dars "O'zlik olmoshi" haqida.

Kishilik olmoshlari o'rnida qo'llanilib, ko'pincha shaxsni, ba'zan predmetni ko'rsatuvchi *o'z* so'zi o'zlik olmoshi sanaladi.

---

<sup>31</sup>Bu ma'lumot 7-sinf darsligining 14-darsidan olindi.

*O‘zim, o‘zing, o‘zi* so‘zlari ba‘zan egalik qo‘shimchalariga mos kishilik olmoshlari bilan *mening o‘zim, sening o‘zing, sen o‘zing, uning o‘zi, u o‘zi* tarzida qo‘llaniladi va bu vaqtda ko‘pincha kishilik olmoshlariga ta‘kid ma‘nosi yuklanadi. Qoidalar asosida o‘quvchilar bilan mashqlar orqali ishlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

### **17-dars “So‘roq olmoshlari” haqida.**

Shaxs, narsa-hodisa, belgi-xususiyat, miqdor, sabab, maqsado‘rin, payt haqida so‘roqni bildiruvchi olmoshlar so‘roq olmoshlari sanaladi. Ularga Kim?, Nima?, Qayer?, Qaysi?, Qachon?, Qayerda? kabi olmoshlar kiradi. So‘roq olmoshlari ishtirok etgan gaplar *so‘roq gap* hisoblanadi. Bunday gaplar so‘roq ohangi bilan talaffuz qilinadi va yozuvda gap oxiriga so‘roq belgisi qo‘yiladi.

### **18-dars “ Belgilash olmoshlari” haqida.**

*Har* so‘zi so‘roq olmoshlariga, *bir* so‘ziga qo‘shilib to‘pdan ajratilgan shaxs, narsa, belgilarni bildiradigan belgilash olmoshlarini hosil qiladi.

*Hamma, barcha, bari, butun* olmoshlari esa shaxs, narsa, belgi, harakatlarni jamlab ifodalaydi. *Hamma* narsa, *hamma* shaxs, *barcha* inson *butun* olam kabi tarzida yasaladi.

Demak, to‘pdan ajratilgan yoki jamlab ko‘rsatilgan shaxs, narsa, belgi, harakat-holatlarni ifodalaydigan olmoshlar belgilash olmoshlari sanaladi.

### **19-dars “ Gumon olmoshlari” haqida.**

So‘roq olmoshlariga va *narsa* so‘ziga *alla-* yoki *-dir* qo‘shimchalarini qo‘shish yoki bilan gumon olmoshlari hosil qilinadi.

*Alla-* qo‘shimchasi so‘roq olmoshlari oldidan, *-dir* qo‘shimchasi esa so‘roq olmoshlari so‘ngidan qo‘shiladi.

Har ikki qo‘shimcha asos qism bilan qo‘shib yoziladi. *Narsa* so‘zi faqat *-alla* qo‘shimchasi yordamida gumon olmoshiga aylanadi.

*Bir* so‘zi *kishi, narsa, nima* kabi so‘zlarga qo‘shilib bu so‘zlarga gumon ma’nosini yuklaydi. Ularni *kimdir, nimadir, qachondir* singari gumon olmoshlari bilan almashtirish mumkin. Bunday vaqtda *bir* so‘zi gumon olmoshi o‘rnida qo‘llangan bo‘ladi. Shu bilan birga *birov* so‘zi ham *kimdir* so‘zi bilanerkin almashina olganligi uchun gumon olmoshi hisoblanadi.

### **20-dars “Bo‘lishsizlik olmoshlari” haqida.**

So‘roq olmoshlari va *bir, narsa, nima* so‘zlari oldidan *hech* so‘zining qo‘llanishi natijasida bo‘lishsizlik olmoshlari hosil bo‘ladi. *Hech kim, hech nima, hech qachon, hech qanday, hech qancha, hech narsa* so‘zlari bo‘lishsizlik olmoshlari sanaladiva ular yozuvda ajratib yoziladi. Bu olmoshlar ishtirok etgan gaplarning kesimi inkor shaklidabo‘ladi.

### **21-dars “Olmosh o‘rnida qo‘llanadigan so‘zlar” haqida.**

Eski o‘zbek tilida kamtarlik ifodasi sifatida *men* o‘rnidako‘pincha *kamina, kaminai kamtaringiz, faqir, qulingiz, bandayi ojizingiz* singari so‘z va birikmalar qo‘llanilgan. Hozirgi o‘zbek tilida ham xuddi shu m’noda ba’zan *men* o‘rnida *kamina* so‘zi ishlatiladi. *Men* olmoshi o‘rnida yuqoridagi so‘zlar qo‘llanilganda, kesim mazmunan birinchi shaxsni bildirsa

### **22-dars “Olmoshlarning tuzilishiga ko‘ra turlari” haqida.**

Olmoshlar tuzilishiga ko‘ra sodda, qo‘shma, juft va takroriy bo‘ladi.

### **23- dars “Sodda va qo‘shma olmoshlar va ularning imlosi” haqida.**

Faqat bir asosdan iborat bo‘lgan olmoshlar sodda, ikki asosdan tashkil topgan olmoshlar qo‘shma olmoshlar hisoblanadi. *Kim?, nima?, hamma, harcha* singari tub olmoshlar, *kimdir, qaysidir, allakim, allaqanday* singari yasama olmoshlar

sodda olmoshlardir. Tarkibida *hech, bir* qismlari mavjud bo'lgan olmoshlar qo'shma olmoshlardir. Yasama sodda olmosh qismlari qo'shib, qo'shma olmosh qismlari esa ajratib yoziladi.

#### **24-dars “Juft va takroriy olmoshlar. Ularning imlosi” haqida.**

Bir-biriga mazmunan yaqin bo'lgan olmoshlarning birikuvidan hosil bo'lgan olmoshlar juft olmoshlar sanaladi.<sup>32</sup>

Bir olmoshning aynan yoki ayrim tovush o'zgarishi bilan (masalan, *uncha-muncha*) takrorlanishidan hosil bo'lgan olmoshlar takroriy olmoshlar hisoblanadi.

Juft va takroriy olmoshlar qismlari chiziqcha bilan yoziladi. Olmoshlar boshqa so'zlarning yasalishiga asos bo'lishi mumkin. *O'zboshimcha, o'zbilarmon, manman* kabilar sifat, *o'zidan ketmoq, o'ziga kelmoq* iboralar sanaladi.

#### **25-dars “Mustahkamlash” darsi.**

**1-topshiriq.** Gaplarni ko'chiring. Olmoshlarni topib, ma'no guruhlariga ajrating.

1. U har yili ta'tilni o'z qishlog'ida, ota-onasi bag'rida o'tkazadi. (A. Qosimov) 2. Akajon, akajon! U bizning laylak emas. Siz aqllisiz-ku! o'sha qochoq bilan teng bo'lasizmi? (S. Sirojiddinov) 3. Qiziq, unda nimaga asoslanib shunday qarorga keldingiz? (A. Karimov) 4. Har kim bilganicha maslahat bera boshladi. (N. Norqobilov)

#### **2.2. Akademik litseyda olmosh so'z turkumining berilishi.**

#### **27-dars “Olmoshlarning ma'no xususiyati” haqida.**

**Dars maqsadi:** Olmoshlarning ma'no xususiyatlari haqidagi talabalarning bilimlarini mustahkamlash.

---

<sup>32</sup>Bu ma'lumot 7-sinf darsligining 24-darsidan olindi.

## Reja:

Olmosh va uning vazifasi

Olmoshlarning ma'no turlari.

Barcha mustaqil so'z turkumlari va hatto yordamchi so'zlar hamda gap o'rnida almashinib kelgan so'zlarga olmosh deyiladi. Olmoshlar ot, sifat, son, ravish, fe'l o'rnida va ba'zan yordamchi so'z, gap o'rnida almashinib keladi. Masalan, *Gul ochildi. Uning ochilishi kishilarga rohat bag'ishladi. Gullarning ko'pi pushti rangda. Ana shu rang menga juda yoqadi. Karim gullarni uza boshladi. Bu esa bog'bonning jahlini chiqardi. Va bog'lovchisi o'zaro teng ma'noli gaplarni bog'laydi. Bu teng bog'lovchilar sirasiga kiradi. Bu gaplarning birinchisida gul (ot) o'rnida u, ikkinchisida pushti (sifat) o'rnida ana shu, uchinchi gapda uza boshladi (fe'l) o'rnida bu so'zlari, to'rtinchi gapda va bog'lovchi o'rnida bu olmoshi almashinib kelyapti.*

Olmoshlar bevosita atash ma'nosiga ega bo'lmaganligi uchun **“ichi bo'sh so'zlar”** deb ham yuritiladi. Aynan ana shu qoidaga alohida e'tibor qaratib ketish kerak. O'quvchilar ichi bo'sh so'z deganda nima nazarda tutilayotganini bilishmaydi. Buni alohida misollar orqali o'quvchilarga tushuntirib berishimiz kerak. Masalan, men deganda aniq bir shaxs nazarda tutilmasligini, men deb hamma o'zini ayta olishini tushuntirib berishimiz kerak yoki siz deganda aniq bir shaxsni emas har qanday insonga qarab siz deb murojat qilamiz misolida.

Olmoshlar qanday so'zlarning o'rnida almashinib kelishi va qanday ma'noni ifodalashiga ko'ra bir necha ma'no turlariga bo'linadi.<sup>33</sup>

**282-mashq.** Matnni o'qing, olmoshlarni topib, ularga tavsif bering.

---

<sup>33</sup> Nurmonov A., Sobirov A., Mahmudov N., Qosimova N., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-, 2-, 3-kitoblar. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning 1-, 2-, 3-bosqich talabalari uchun darslik. Uchinchi kitob. – Toshkent: “ILM ZIYO” 2013. – B. 345

Boshimga bir savdo tushdi rahmatli otamning o‘z tilovatlarida: «Nohaq tuhmat, bemahal o‘limdan o‘zing asragin», deya qiladigan iltijolari qulog‘im ostida jaranglab ketdi. Hamisha shunday: «Salomatlik qadriga yetmas — bemor bo‘lmaguncha» deganlaridek, xom sut emgan notavon bandalar boshimizga biror kulfat tushmaguncha yoki peshanamiz biror yerga «taq» etib urilmaguncha, so‘zning ham, nasihat va duoning ham qadriga yetmaymiz. Deyarli har kuni ro‘baro‘ bo‘ladigan oshnolarimiz pand berib, boshimiz malomatlarga qolganidan keyingina beg‘ubor o‘tgan kunlarimiz, beig‘vo kechgan onlarimiz ko‘zimizga to‘tiyo bo‘lib ko‘rina boshlaydi. Faqat shundan keyingina tilimizdagi «tuhmat», «bo‘hton» degan so‘zlarning ma‘nolarini ularning paydo bo‘lish sabablarini qidirib qolamiz, faqat shundan keyingina kitob tokchamizda jimgina turadigan «Tafakkur gulshani»ning shu kungacha bilmagan sahifalarini ochamiz va ilgari e‘tiborni tortmagan hikmatlar dardimizga malhamdek yoqa boshlaydi: «Kaltafahmlar faqat odamlarning kamchiligini ko‘radilar-u, fazilatlariga e‘tibor bermaydilar. Ular badanning nuqul gazak olgan a‘zosiga qo‘nmoqchi bo‘layotgan pashshaga o‘xshaydilar. Bo‘hton ham yaxshi odamlarga yopishadi».

Ha, ming afsuski, tuhmat balosi ham yaxshilarning, biror sohada omadi chopib, ishi yurishib qolganlarning gardaniga yopishadi. Yana mevali daraxtga tosh otiladi! Bunga misol izlab ovora bo‘lmasligimiz uchun Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosirlar taqdirini bir bor eslab qo‘yishning o‘zi kifoya. Xalqimizning bu asl farzandlari eng, birinchi navbatda, g‘arazgo‘y, toshbag‘ir, qora yurak hamkasblarining qurboni bo‘ldilar. O‘zbek adabiyotining yorqin yulduzlari bo‘lgan bunday jahonshumul iste‘dodlar hasadgo‘y va g‘alamis hamkasblarining bo‘htoni tufayli bu yorug‘ olamni bag‘ri xun bo‘lib o‘tkazishga, otashin so‘zlarini bo‘g‘izlarida olib ketishga majbur bo‘ldilar. Xo‘sh, tuhmat shu qadar jirkanch illat ekan, unga qarshi qanday chora qo‘llagan ma‘qul? Bizningcha, choralarning eng birinchi va eng osoni — tuhmatchining so‘zini tinglamaslikdir. Zero, shariat hukmiga binoan g‘iybatning sherigidir. U g‘iybatchini inkor qilib,



gapini bo'lishi, mavzuni boshqa yoqqa burish bilangina bu gunohdan qutulib qoladi.

Ushbu mashqani o'quvchilar bilan doskada ishlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir o'quvchi doskada 1-gapni tahlil qilishi kerak ya'ni gapda olmoshni topib o'sha so'zni olmoshning qaysi ma'no turiga kirishini aniqlashi kerak.

Dars yakunida o'qituvchi albatta o'quvchilarga uyga vazifa berishi shart, va bu vazifada o'quvchi o'tilgan mavzuni qay darajada tushunganini berilgan mashq orqali ko'rsatib berishi kerak.

**Uyga topshiriq.** “Sen ham, siz ham bir og'izdan chiqadi...” mavzusida matn tuzing, unda ishlatilgan olmoshlarga diqqat qiling va ularni izohlang.

### **2.3. Innovatsion texnologiyalar yordamida olmosh so'z turkumini o'qitish metodikasi**

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining yaratilishi sohada ulkan o'zgarishlar, mazmun jihatidan yangilanishlar amalga oshirilishiga turtki berdi. Mazkur me'yoriy hujjatlarda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tub islohotlar – ta'lim mazmuni, ta'lim-tarbiya jarayonini yangilash, yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish kabi dolzarb vazifalar belgilab berilgan. Bu esa ta'lim tizimining sifat darajasini yangilash, ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish tizimini ham takomillashtirishni ham taqozo qiladi.

Hozirgi davr ta'lim jarayoniga “innovatsion yondashuv” atamasi kirib keldi. Shu yo'sindagi tadqiqotlarning aksariyatida innovatsion faoliyat yangilik va ilmiy pedagogik texnologiyalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan bo'lsa, ayrim olimlarning izlanishlarida innovatsion jarayonlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsion faoliyat uchun zarur shart-sharoitlar yaratish masalalari tahlil qilingan.

Xo'sh, innovatsiya, innovatsiya, innovatorlar, innovatsion ta'lim, innovatsion texnologiya, innovatsion o'qitish deganda nima tushuniladi?

Dastavval, innovatsiyadeganda nimani tushunishimizni bilib olishiz zarur. **“Innovatsiya”** so'zi lotincha “yangilanish, yangilik yoki o'zgarish” ma'nolarini anglatadi. **Innovatorlar** deganda, ixtiro qilingan yangiliklarning mualliflari, tushuniladi, demak, ular yangilik yaratuvchilardir.

**Innovatsion ta'lim** – yangilangan, yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni.

**Innovatsion o'qitish** – yangicha o'qitish tizimi.

**Innovatsion texnologiya** – pedagogika rivojini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy faollik jarayoni.

Demak, innovatsion yondashuv bu – ta'lim jarayoniga yangicha o'qitish tizimini tatbiq etish, yangi texnologiyalarni qo'llashdan iborat bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi.

Ta'lim tizimida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalarning muhim jihati shundaki, u o'quvchilarni faollashtiradi, ularga fikrni mustaqil ifodalash, tanqidiy fikr yuritish, tahlil qilish, xulosa chiqarishni o'rgatadi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda quyidagi o'ziga xos tamoyillarga asoslaniladi: a) muayyan dars, mavzu, qism, o'quv predmetidan kutilgan asosiy maqsadni shakllantirib olish; b) umumiy maqsaddan kelib chiqib, darsni yoki o'quv predmetini modullarga ajratib, har bir moduldan kutilgan maqsadni va modullar ichida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olish; v) modul ichida yechiladigan masalalarning har biri bo'yicha test savollarini tuzib chiqish; g) maqsadlarga yetish usullari tanlanib, ularni ishlatadigan aniq joylarni belilab olish; d) dars qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklarga va fanlararo aloqalarga e'tibor qaratish.

. Ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish, mavjud imkoniyatlarni safarbar etish o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Darsda uch maqsad

ko'zda tutiladi: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish. Mana shu uch maqsadni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalar yaqindan yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalarda foydalanishda quyidagilarga e'tibirini qaratishi lozim:

- innovatsion texnologiyalarning mohiyati;
- ta'lim maqsadlarini amalga oshirishdagi ro'li;
- fan bo'yicha innovatsion texnologiyalarni qo'llash tamoyillari;
- ta'limiy va ishchanlik o'yinlari;
- muammoli va rivojlantiruvchi tomonlari;
- o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilaish yo'llari;
- Ko'rsatmali o'qitish usullari.

Ona tili darslari innovatsion texnologiya asosida tashkil qilinganda, asosan, o'quvchilarda hamkorlikda ishlash ko'nikmasi shakllanadi, umumiy vazifalar yechimini topishda bir-birlariga ko'mak beradilar, o'quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash malakalari tarkib topadi, o'quvchilar o'z ishlari natijasiga, o'qishga, ta'lim olishga shaxsan mas'ullikni his qiladilar.

Quyida innovatsion texnologiyalardan ba'zilarini keltiramiz va sharhlaymiz:

1. "Aqliy hujum" texnologiyasi.
2. "Klaster yoki tarmoqlanish" texnologiyasi.
3. "Kichik guruhlarda ishlash yoki hamkorlik" texnologiyasi.
4. "Musobaqa" texnologiyasi.
5. "Idrok xaritasi" texnologiyasi.
6. "FSMU" texnologiyasi
7. "Sinkveyn" texnologiyasi.
8. "Seminar-trening" texnologiyasi.
9. "Ajurli arra" texnologiyasi.
11. "Baliq skeleti" texnologiyasi.
12. "Qaysi biri ortiqcha?" texnologiyasi.

– “Aqliy hujum” texnologiyasi.

**Aqliy hujum usuli**

(breynstroming-aqlar to‘zoni) - amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g‘oyasini jamoaviy yuzaga keltirish.



**Ishtirokchilar aqliy hujum vaqtida murakkab muammoni hal etishga harakat qiladilar: ularni tanqid qilishga yo‘l qo‘ymay uni hal etishning ko‘proq shaxsiy g‘oyalarini yuzaga keltiradilar, so‘ngra ko‘proq oqilona/samarali/maqbul va boshqa g‘oyalarni ajratadilar, ularni muhokama qiladilar va rivojlantiradilar, ularni isbotlash yoki qaytarish imkoniyatlarini baholaydilar.**



“Aqliy hujum” usulini qo‘llash quyidagicha tartibda amalga oshiriladi:

Bu texnologiyadan yangi mavzuni mustahkamlash va uyga berilgan vazifani so‘rash jarayonida foydalaniladi. Bunda ham sinf o‘quvchilari kichik guruhlar bo‘linib olinadi. “Aqliy hujum” texnologiyasidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi: 1) har bir o‘quvchini bergan to‘g‘ri javobi uchun rag‘batlantirish lozim; 2) guruhning barcha a‘zolari ishtirok etishini ta‘minlash zarur; 3) har birining o‘z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a‘zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas‘uliyatligini his qilishga yo‘naltirish kerak. “Aqliy hujum” texnologiyasi ham maktab ona tili darslarida, ham akademik litsey hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida unumli qo‘llash va ijobiy natijalarga erishish mumkin bo‘lgan samarali texnologiyalardan hisoblanadi. Shu bois uni tatbiq etishda quyidagilarga e‘tibor qaratish juda ham muhim: 1) ta‘limning qaysi bosqichiga tatbiq etilayotganiga; 2) o‘quvchilarning yoshiga; 3) taqdim etilayotgan

savollarning sodda yoki murakkabliligiga; 4) egallagan bilim, ko‘nikma va malakalariga.<sup>34</sup>

Olmosh so‘z turkumi mavzularini o‘rgatishda zamonaviy interfaol usullarning o‘rni bor. Maktabda “Aqliy hujum” texnologiyasidan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish orqali darsni yanada qiziqarli va o‘quvchilar faoliyatini esa oshirish imkoniga ega bo‘lish mumkin. Shu o‘rinda “Aqliy hujum” texnologiyasi haqida batafsil tushuncha berib o‘tmoqchimiz:

Darsning uyga vazifani so‘rash va o‘tilganlarni mustahkamlash bosqichlarida bu texnologiyadan unumli foydalanish mumkin. Masalan, o‘tgan mavzu olmosh bo‘ladigan bo‘lsa, o‘quvchilarga tayyorlanib kelishi uchun taxminiy savollar oldindan taqdim etiladi. Savollar o‘qituvchi tomonidan beriladi. Guruhdagi o‘quvchilarning tez va aniq javobi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qaysi guruhdan o‘quvchi birinchi bo‘lib to‘g‘ri javob bersa shu javob rag‘bat olish imkonini qo‘lga kiritadi. Natijalar jamlanib, g‘olib guruh aniqlanadi. “Aqliy hujum” texnologiyasidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

- har bir o‘quvchini bergan to‘g‘ri javobi uchun rag‘batlantirish lozim;
- guruhning barcha a‘zolari ishtirok etishini ta‘minlash zarur;
- har birining o‘z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a‘zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas‘uliyatligini his qilishga yo‘naltirish kerak.

“Aqliy hujum” texnologiyasi ham maktab ona tili darslarida unumli qo‘llash va ijobiy natijalarga erishish mumkin bo‘lgan samarali texnologiyalardan hisoblanadi. Shu bois uni tatbiq etishda quyidagilarga e‘tibor qaratish juda ham muhim:

- 1) ta‘limning qaysi bosqichiga tatbiq etilayotganiga
- 2) o‘quvchilarning yoshiga;
- 3) taqdim etilayotgan savollarning sodda yoki murakkabliligiga;
- 4) egallagan bilim, ko‘nikma va malakalariga.

---

<sup>34</sup> Nurmonov A., Sobirov A., Mahmudov N., Qosimova N., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-, 2-, 3-kitoblar. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning 1-, 2-, 3-bosqich talabalari uchun darslik. Uchinchi kitob. – Toshkent: “ILM ZIYO” 2013. – B. 345

O'qituvchi darsni o'quvchilardan uyga vazifani so'rash bilan boshlaydi. Uyga vazifa: Rasm asosida "Kuzda" mavzusida matn tuzing, ravish so'z turkumidan foydalaning. O'quvchilar baholangandan so'ng yangi mavzu e'lon qilinadi. Yangi mavzu: Olmosh va uning uslubiy xususiyatlari. Ushbu mavzuni o'rgatishga noan'anviy yondashgan holda, dastlab, sinfdagi o'quvchilarni guruhlarga: "*Aristokrat*", "*Intellekt*" va "*Everest*" kabi guruhlarga bo'lib olinadi va yangi mavzuni o'rganish "*Bilimlar oroliga sayohat*" o'yini bilan boshlanadi. O'qituvchi orol manzarasi, ya'ni uchta kema, daraxtlar, qirg'oq va dengiz tasviri tushirilgan plakatni doskaga ilib qo'yadi. Uch guruhga bo'lingan o'quvchilar o'z kemalarida bilimlar oroliga sayohatga chiqadilar. Oroldagi "*Savol-javob*" va "*Davom ettir*" bekatlarida to'xtab, undagi shartlarni bajarish lozim. Birinchi bekat: "*Savol-javob*" deb nomlanadi. O'quvchilardan berilgan savollarga guruh bilan kelishgan holda javob beradilar.

#### **Savollar quyidagicha:**

1. Olmosh deb nimaga aytiladi? Misollar keltiring.
2. Olmoshning qanday ma'no turlari bor Misollar keltiring.
3. Bo'lishsizlik olmoshlariga ta'rif bering, va misollar keltiring.

Savollarga to'g'ri javob bergan guruh ikkinchi bekatga, ya'ni "Davom ettir" bekatiga yo'l oladi. Bu bekatda o'quvchilar bosh qismi berilgan maqollarning, qolgan qismini mustaqil ravishda topishlari kerak musobaqa tarzida o'tkaziladi. *Bekatlardagi shartlarni a'lo darajada bajargan guruh g'olib deb e'lon qilinadi va rag'batlantiriladi.*

– "**Klaster yoki tarmoqlanish**" texnologiyasi. Unda o'quvchilar deduktiv metodga xos ravishda yakka tartibda yoki guruhlarga bo'linib ishlaydilar. Bunda ularga quyidagi umumiy savol beriladi.


– "**O'yin**" texnologiyasi. Ma'lumki, kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy talablaridan biri ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirib, o'quvchilarni mustaqil bilim olishga, erkin fikrlashga o'rgatishdir. Chunonchi, maktabda o'tiladigan barcha fanlar qatori ona tili fanidan o'tkaziladigan

mashgʻulotlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, ayniqsa, “oʻyin texnologiyasi”dan foydalanish yaxshi samara berayotganligi hech kimga sir emas. Shunday ekan, ona tili mashgʻulotlarida oʻquvchi yoshlarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda taʼlim jarayoniga turli xildagi ilgʻor pedagogik texnologiyalar (taʼlimiy oʻyinlarni ) tatbiq etish lozim. Chunonchi, hozirgi kunda ilgʻor oʻqituvchilarning ijodiy izlanishlari natijasida bir qancha zamonaviy taʼlim usullari ishlab chiqildi. Bu usullardan samarali foydalanish – oʻqituvchidan oʻz fanini puxta bilishni, ilgʻor zamonaviy oʻqitish usullaridan samarali foydalanish yoʻllarini kashf eta olish va amalda qoʻllay olishni talab qiladi. Shundagina oʻqitish sifati ham, oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajasi ham yuqori boʻladi.

“Oʻyin” texnologiyasini darsning uyga vazifani soʻrash va mustahkamlash bosqichlariga tatbiq etilsa maqsadga muvofiq. Chunki umumtaʼlim maktablarining 5- 6-sinflarida bu texnologiyaning qoʻllanilishi nisbatan ona tili taʼlimining boshqa bosqichlariga qaraganda samaradorlikka erishishga qulay va oson. Oʻquvchilarning yoshi, fizilogik holati, psixologiyasi oʻrganish va tahlil qilish natijalari hamda oʻtkazilgan tajriba-sinov natijalari shundan dalolat beradi. Demak, bu texnologiyaning tatbiqi oʻquvchilarning darsga va mavzuni yaxshiroq oʻrganishga boʻlgan qiziqishini oshiradi, ularning faol harakat qilishlari uchun zamin yaratadi. Bu darsning yanada samarali boʻlishiga imkon beradi.<sup>35</sup>

**“Baliq skeleti” texnologiyasi.** “Baliq skeleti” texnologiyasidan ham foydalanish mumkin. Masalan, 7-sinfda oʻqitiladigan olmosh soʻz turkumiga oid mavzularni tushuntirish va mustahkamlash jarayonida buni qoʻllash orqali darsning yanada samarador boʻlishini taʼminlasa boʻladi.

### **“BALIQ SKELETI” SXEMASI TEXNOLOGIYASI**



<sup>35</sup> Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. – Тошкент: Шарқ, 1999. 1-маҳсус сон.

QOIDASI: Baliq skeletining bosh chanog‘iga mavzuga oid umumiy qoida, olmoshning umumiy qoidasi, qo‘yiladi. Skeletning tepadagi qovurg‘alariga olmoshning ma‘naviy turlari birin-ketin yozilsa, pastagi qovurg‘alariga har bir olmosh turiga misollar yoziladi.

### **“QAYSI BIRI ORTIQCHA” TEXNOLOGIYASI**

QOIDASI: Dastavval o‘quvchilarga olmosh to‘g‘risidagi mavzu o‘tiladi. O‘tilgan mavzu yuzasidan savollar beriladi va ularning javoblari ham ilova qilinadi. Javoblar orasiga noto‘g‘ri variantlari ham qo‘shib qo‘yiladi. O‘quvchilar bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Kishilik olmoshlari: men, biz (I shaxs); sen siz (II shaxs); u, ular (III shaxs);

Ko‘rsatish olmoshlari: bu, shu, o‘sha, mana shu, mana bu, ana shu kabilar;

So‘roq olmoshlari: kim, nima, qanday, necha, qaysi, qancha, nega, qalay kabilar;

O‘zlik olmoshi: o‘z;

Belgilash jamlash olmoshlari: har bir, har qaysi, har qancha kabilar;

Bo‘lishsizlik olmoshi: hamma, butun barcha, bari, har kim, har qanday (hech qaysi) kabilar;

Gumon olmoshlari: allakim, allaqanday, allaqaysi, kimdir, nimadir, allanima kabilar.

**–Kichik guruhlarda ishlash yoki hamkorlik texnologiyasi.** Kichik guruhlarda ishlashda dars jarayonida barcha o‘quvchilarni faollashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Kichik guruhlarda ishlash yo‘llari quyidagilardan iborat:

1) Topshiriq, chalkash masala yoki savol asosida muammo tanlab olinadi. Topshiriqda bahsli jihatlar bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

2) Kichik guruhlar shakllantiriladi. Guruhlardagi o‘quvchilar soni taxminan 5-6 tani tashkil etishi lozim.

3) Guruhda ishlash vaqti belgilab olinadi.



Masalan, 4ta guruh tuzilib guruhlarning har biriga olmosh soʻz turkumi qatnashgan 6 ta gap beriladi. Oʻquvchilar bu gaplardagi olmosh soʻz turkumini topib, olmoshning qaysi maʼno turiga kirishini aniqlashlari lozim. Kichik guruhlarda ishlash jarayonida alohida masalalar yuzasidan oʻz fikrini guruhda muhokama qilishga, turlicha fikrlarni uygʻunlashtirib, umumiy nuqtayi nazarga kelishga oʻrgatiladi. Shuningdek, har bir oʻquvchi guruh aʼzosi sifatida sinfdoshlari oldida soʻzga chiqib, guruh nuqtayi nazarini himoya qiladi va bu bilan oʻquvchida koʻpchilik oldida soʻzlash, oʻz fikrini himoya qilish, fikrlarini uygʻunlashtira olish, xatosiz va chiroyli yozish kabi koʻnikma va malakalar shakllana boradi.

– **“Seminar-trening” texnologiyasi.** Bu texnologiyadan, asosan, akademik litseylarning hozirgi oʻzbek adabiy tili darslarida foydalanish yaxshi natija beradi. Chunki litsey yoshidagi oʻquvchilarda oʻzining mustaqil fikrini aytishga, fikrni ifodalash jarayonida taqdimot materiallarini ishlab chiqishga ishtiyoq kuchli boʻladi. Oʻzlari ham qoʻshimcha manbalardan maʼlumotlar toʻplab, ulardan taqdimot jarayonida foydalanishga harakat qilishadi. Seminar-trening ishtirokchilari oʻrtaga tashlangan masala yoki mavzu yuzasidan taʼlimning uzviyligi va uzluksizligi tamoyili talablariga rioya qilgan holda oʻz fikrlarini bayon qilishadi, mustaqil fikrlarini dalillar bilan asoslashga harakat qilishadi. Masalan, aynan shu usulni olmoshning uslubiy xususiyatlariga oid bilimlar oʻrgatib boʻlingandan soʻng mustahkamlash va oʻquvchilarda oʻtilganlar yuzasidan koʻnikma va malakalar hosil qilish maqsadida tashkil etish mumkin.

Har bir oʻqituvchi kichik guruhlarda “Seminar-musobaqa” darslarini tashkil qilishda samaradorlikka erishish uchun quyidagilarga amal qilish muhim ahamiyat kacb etadi:

– guruhga bitta topshiriq berish lozim;

## 2.4. Olmosh so‘z turkumini o‘qitishda qo‘llaniladigan mashqlar (o‘yin-topshiriqlar) tizimi

Ma'lumki, ta'lim bosqichlari ona tili darslarida qo'llaniladigan o'quv topshiriqlarining muayyan qismini *o'yin topshiriqlari* tashkil etadi. Til hodisalarini o'rganishda o'yin vaziyatini yaratish yoki o'yin darslari tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi.<sup>36</sup> Chunki ona tili fani ko'p mavhum tushunchalar, ta'rif, qoida va xulosalar bilan ish ko'radiki, ularni xotirada saqlab qolish zarur paytda amaliy faoliyatda qo'llash o'quvchiga qiyinchilik tug'diradi. O'quvchi har bir o'rganilayotgan til hodisasini o'zining aqliy faoliyatidan o'tkazsa, bu hodisalar ustida mustaqil ijodiy ishlar bajarsa, aqliy faoliyat usullari: kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi bosqichlarni bosib o'tsagina, u o'rganilishi ko'zda tutilgan til hodisalarining mohiyatini puxtarok anglardi va uni o'rganishga qat'iy kirishadi-yu *o'yin-topshiriqlar* ham o'quvchidan xuddi mana shu bosqichlarni bosib o'tishni talab etadi va uni ta'lim jarayonining subyektiga aylantiradi.

Ta'limiy o'yinlarning eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u o'quvchidan tezkorlik, sezgirlik va topqirlikni talab qiladi.

Ta'limiy o'yinlarning boshqa o'yin turlaridan tub farqi shundaki, bola jarayonda ishtirok etishi orqali bilim oladi, egallagan ko'nikma va malakalarini kengaytiradi.

Bu vazifalar o'quvchini bilim, ko'nikma va malakalar silsilasi bilan qurollantirishni nazarda tutadi. Modomiki shunday ekan, demak, o'qituvchi o'quvchilarni belgilangan vazifani bajarishga undaydi, yo'naltiradi. Bu jarayon o'quvchidan oldin egallagan bilimlarni xotirada tiklashni, zaruriyat tug'ilganda uni yangi sharoitda qo'llay olishi, o'zida mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlarni ishga solishni talab etadi.

Ta'limiy o'yinda harakat usuli ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin harakati o'quvchilarning diqqatini o'ziga tortishi bilan birga, ularni tez faoliyat ko'rsatishga ham undamog'i darkor. Chunki bellashayotgan o'quvchilar yoki

---

<sup>36</sup> Худойкулов Х.К. Ўқитишнинг интерфаол технологияларидан фойдаланиш – касбий билимларни ўзлаштиришнинг муҳим омили. “Касб-хунар таълими”, 2014, 5-сон, 15-бет.

muayyan guruhlardan texkorlik, sezgirlik, chaqqonlik talab etiladi. Shuni unutmaslik lozimki, faqat harakat usulidan xabardor o'quvchigina o'yin shartini to'g'ri bajarishga yo'l topadi.

Ta'limiy o'yinlar hamma vaqt belgilangan qoidaga bo'ysinadi. Shubhasiz, bu qoidalar o'yin-topshiriqning shartida o'z ifodasini topadi. O'yin qoidasiga qat'iy amal qilish uchun uni muvaffaqiyatli bajarishning asosiy shartidir. Ma'lumki, ta'limiy o'yindan ko'zlangan maqsad uning natijasida namyon bo'ladi. Shuning uchun musobaqadosh ishning yakunida nimaga erishishlari mumkinligini aniq bilishlari kerak. Dars jarayonda tashkil etiladigan ta'limiy o'yinlarning asosiy maqsadi o'quvchilarni zerikish va toliqishdan saqlashdir. Shuni yodda turmoq lozimki, o'yin orqali singdirilgan bilim o'quvchi xotirasiga mustahkam o'rnatib qoladi va bu bilimlarni u har qanday tanish va notanish sharoitida ishga sola oladi. Shunday qilib, ona tilidan tashkil etiladigan ta'limiy o'yinlar mazmuni o'z ichiga, asosan, to'rt omilni qamrab oladi: 1) o'yinning vazifasi; 2) o'yinning harakati; 3) o'yinning qoidasi; 4) o'yinning yakuni.

Ona tilidan o'quvchilarga beriladigan o'yin-topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko'ra, asosan, uch turga ajratish mumkin:

- qayta xotirlashga asoslangan o'yin-topshiriqlar;
- qisman ijodiy o'yin-topshiriqlar;
- ijodiy o'yin-topshiriqlar

Quyida har bir o'yin-topshiriq turlarini tavsiflaymiz: 1) Qayta xotirlashga asoslangan o'yin-topshiriqlar o'quvchida hech qanday ijodiylikni, egallagan bilimlarni yangi sharoitda qo'llashni, yaratuvchilikni talab qilmaydi. Oldin o'rganilgan mavzular yoki bo'limlar yuzasidan muayyan bilimga ega bo'lgan o'quvchi bunday topshiriqlarni bema'lol bajarishi mumkin. Chunonchi, olmoshning tuzilishiga ko'ra turlari o'rganilgach, gaplardagi olmoshlarni topib va ularni sodda, qo'shma, juftolmoshlaridan qay biriga tegishli ekanligini aniqlashlari darkor. 2) Qisman ijodiy o'yin-topshiriqlar o'quvchidan ma'lum bir yordamga asoslangan holda faoliyat ko'rsatishni talab qiladi.

3) Ijodiy o‘yin-topshiriqlar oldin egallagan bilimlarni tamomila yangi sharoitda qo‘llash demakdir.

Ona tilidan tashkil etiladigan o‘yin-topshiriqlarni qay maqsadga yo‘naltirilganligiga qarab:

- lisoniy bilimlarni puxta o‘zlashtirishga qaratilgan o‘yinlar;
- o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish va hutqini rivojlantirishga qaratilgan o‘yinlar kabi turlarga bo‘lish mumkin.

Lisoniy bilimlarni puxta o‘zlashtirishga qaratilgan o‘yinlar va shu jarayonda bajariladigan o‘yin-topshiriqlar asosan grammatik bilimlarni o‘zlashtirish, o‘zlashgan bilimlar asosida ko‘nikma va malakalar hosil qilishga qaratilgan bo‘ladi. Bunday o‘yin-topshiriqlarga bilim olishga va uni mustahkamlashga qaratilgan ish turlarini kiritish mumkin.

***Mashqlar.*** Mashqlarning maqsadi o‘quvchilarning mavzuga oid nazariy ma’lumotlar yuzasidan puxta bilim olishini va o‘zlashgan bilimlar asosida ko‘nikma va malakalar hosil qilishini kafolatlashi lozim. Mashqlarni bajarish natijasida o‘quvchilar olgan bilimlarni ongli o‘zlashtira boradilar, bilimlarni amalda qo‘llay oladilar, savodli fikrlash malakalari orta boradi.

Maktab va akademik litseylarning ona tili darslarida mashqlarning quyidagi turlari ko‘proq o‘tkaziladi:

- o‘rganilayotgan olmosh so‘z turkumini amaliy tatbiq etish;
- misollar tanlash;
- matni yoki so‘zni shaklan o‘zgartirish;
- matndan zarur bo‘lganlarni ko‘chirib yozish;  
savol va topshiriqlarga javob yozish;
- nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki Grammatik shaklni qo‘ya olish;  
berilgan namuna asosida olmoshga oid so‘z, birikma va so‘zlar ishtirokida mavzu bo‘yicha gap, matn tuzish; olmosh turlarini aniqlash;  
so‘z va gaplardagi olmosh so‘z turkumini aniqlash, ma’no munosabatini izohlash.

mashqlar qat'iy bir tizimga xos qoidalar asosida o'tkazilishi shart;

- o'quvchilarning yozma va og'zaki fikrlarini to'g'ri ifodalash malakasini hosil qilishi lozim;

- grammatik mashqlar o'quvchilarning o'z fikrlarini qisqa, ixcham ifodalashga o'rgatishi kerak;

- mashqlar o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stirishga yordam berishi zarur;

- mashqlar orqali ifodali o'qish, chiroyli yozish malakalarining takomillashtirilishiga erishish lozim;

- mashqlar o'zlashtirilgan Grammatik bilimlarni o'z nutqida mustaqil ravishda va ijodiy qo'llash malakasini hosil qilishda xizmat qilishi lozim;

- o'quvchilarda topqirlik, hozirjavoblik, zukkolik, notiqlik fazilatlarini tarbiyalashda mashqlar tayanch omil bo'lishi lozim.

**Ushbu so'zlarni ikki ustunga (guruhga) ajrating. Men, u, biz, har bir, har qaysi, hamma, ana o'sha.**

1.Sodda olmoshlar

2.Murakkab olmoshlar.

**Testlar.** Test sinovi nazoratning zamonaviy usullaridan bo'lib, har bir o'quvchi mustaqil fikrlash asosida bergan javoblarini xolisona baholash, o'zlashtirilgan bilim darajasini individual va butun sing (guruh) bo'yicha baholash imkoniyatini beradi. Ona tili fanini o'rganish bo'yicha qo'llaniladigan sinov testlari og'zaki va yozma nutqni, tilni tushunishni, grammatik bilimlarni tekshirishni ko'zda tutadi. Shunga ko'ra testlar tizimi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Har bir mavzuning o'zlashtirilishini nazorat qiluvchi testlar.
- Chorak-sinov testlari.
- Yillik (yarim yillik) sinov testlari.

Testlar qo'llanish maqsadiga ko'ra, o'zlashtirilgan bilimlarning kamchiliklarini aniqlashga, chuqurroq o'zlashtirishga erishish uchun:

- Ma'lum bir mavzu bo'yicha olingan bilim, ko'nikma va malakalarni sinash ko'rinishlarida bo'lishi lozim.
- Test topshiriqlari ishonchli, amaliy bo'lishi lozim.
- Har bir o'quvchiga beriladigan savollarning oddiylik yoki murakkablik darajasi va mavzu doirasi bir xil bo'lishi zarur.
- Javoblar oldindan tayyorlab qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'lib, unda o'quvchining ismi sharifi, sinfi (guruhi) va boshqa kerakli ma'lumotlar berilishi zarur.
- o'quvchilarning leksik termin-tushunchalar, ma'no ko'chish hodisalari, ifoda vositalari hamda ularning ma'nolarini qanchalik bilishlarini yalpi tekshirish imkonini beradi. Quyida maktab va akademik litsey ona tili darslarida foydalanish mumkin bo'lgan testlardan namunalar keltiramiz:

### **III.BOB. Ishning amaliyotga tatbiqi**

#### **3.1. Tajriba-sinov materiallari**

Men 2018-yil 12-fevralidan shu yilning 28-apreligacha bo‘lgan davr mobaynida filologiya fanlari nomzodi Tozagul Matyoqubova rahbarligida TDIU qoshidagi akademik litseyda malakaviy pedagogik amaliyotni o‘tadim. Pedagogik amaliyot davomida akademik litseyda o‘z kasbining mohir ustalari, ijodkor o‘qituvchilarning darslarini kuzatdim, ularning nazorati ostida bo‘ldim. Jumladan oliy toifali o‘qituvchi G.Raxmanova, Z.Tojiyevalarning bevosita rahbarligida o‘n bir hafta men uchun kata maktab bo‘ldi.

Pedagogik amaliyot davomida men bitiruv malakaviy ishim bo‘yicha bir qator tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdim. Unda o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatishga oid bir qator vazifalar 1-2- kurs o‘quvchilari bilan amalga oshirildi.

1. Dars jarayonida multimediya vositalari ishlatildi. Unda mavzuga oid video lavhalar, materiallardan unumli foydalanildi.

2. Darslarda muammoli ta‘lim metodlaridan jumladan, muammoli vaziyatdan foydalandim.

3. Ona tili darslarini adabiyot bilan bog‘lab o‘tishga harakat qildim.

4. Amaliyot davomida o‘zim dars o‘tayotgan sinflarda „8-mart“, „Navro‘z“ bayramlari munosabati bilan ijodiy insho o‘tkazdim. Tajriba-sinov ishlarini ishlarini olib borish uchun litsey „Ona tili“, „Adabiyot“ darsliklari materiallarini o‘tish yuzasidan dars ishlanmalari, tavsiyalar tayyorlandi. Nazorat guruhlarida darslar darslik qolipi va o‘qituvchilarning ijodiy yondashuvi asosida tashkil qilindi.

Quyida yakka tartibda ishlash metodi asosida tashkil qilingan dars ishlanmalarimizdan namunalar keltiramiz.

### 3.2 DARS ISHLANMA

#### OLMOSHLARNING MA'NO XUSUSIYATLARI

#### O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi modeli

Vaqt: 80 daqiqa	O'quvchilar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Nazariy-yangi bilimlarni egallash bo'yicha mashg'ulot Amaliy-bilimlarni mashqlar orqali mustahkamlash
O'quv mashg'ulot rejasi:	1. Olmosh va uning vazifalari. 2. Olmoshlarning ma'no turlari. 3. Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari.
O'quv mashg'ulotining maqsadi:	O'quvchilarda mavzu yuzasidan bilim va ko'nikmalar hosil qilish.
Pedagogik vazifalar: Olmosh va uning vazifalari haqida ma'lumot beriladi. Olmoshlarning ma'no turlari haqida ma'lumot beriladi; Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari farqlanadi.	O'quv faoliyati natijalari: Olmosh va uning vazifalari haqida ma'lumot oladilar. Olmoshlarning ma'no turlarini o'rganadilar. Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlarini farqlaydilar.
O'qitish metodlari	Tushuntirish, Charxpalak, Venn diagrammasi
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar
O'quv faoliyatini tashkil etish shakllari	Jamoaviy tarzda va kichik guruhlarda
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalardan foydalanishga mo'ljallangan auditoriya
Qaytar aloqaning usul va vositalari	Og'zaki nazorat: tezkor-so'rov. Yozma mashqlar.



## O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

	Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
		O'qituvchi	O'quvchilar
	1.O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (5 daqiqa)	1.1. Davomatni aniqlashtiradi, jurnalni to'ldiradi 1.2. Mavzuning nomi, rejasi, maqsad va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi. 1.3. O'quv mashg'uloti qanday tarzda o'tishi e'lon qilinadi va darsdagi o'quvchilarga qo'yiladigan baholash mezonlari aytiladi (1-ilova). 1.4. O'quvchilarni guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi (2-ilova).	Aniqlashtiradilar Tinglaydilar, yozib oladilar Diqqat qiladilar
	2.Asosiy bosqich (65 daqiqa)	2.1. Yangi mavzu bo'yicha ma'lumot beriladi (3-ilova) 2.2. "Charxpalak" metodi asosida olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari farqlanadi (4-ilova) 2.3. "Lahzalik aql charxi" da olmosh qatnashgan savollarga javob topiladi. (5-ilova) 2.4. "Venn diagrammasi" da olmosh va ot so'z turkumlarining o'xshash va farqli jihatlari aniqlanadi. (6-ilova) 2.5. Darslikdagi mashqni guruhlarga bo'lingan holda: 1-guruh olmoshning ma'no turi, 2-guruh olmoshning tuzilish turi, 3-guruh olmoshning gapdagi vazifasini izohlaydilar. (7-ilova)	Diqqat bilan tinglaydilar. Jadvalni to'ldiradilar Savollarga javob beradilar Diagramma to'ldiriladi Mashq guruhlarga bo'lingan holda bajariladi
	3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha o'quvchilarda yuzaga kelgan savollarga javob beriladi, mavzu umumlashtiriladi va yakun yasaladi. 3.2. O'quvchilarning baholari e'lon qilinadi va sharhlanadi. 3.3. Uyga vazifa uchun topshiriq beriladi. Keyingi dars mavzusi e'lon qilinadi.	Diqqat qiladilar. Savollar beradilar.

### *Guruhlarda ishlash qoidalari*

☞ Sherigingizni diqqat bilan tinglang

Guruh ishlarida o`zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga javobgarlik bilan yondashing.

Agar yordam kerak bo`lsa, albatta, murojaat qiling.

Agar sizdan yordam so`rasha, albatta, yordam bering.

Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart.

Quyidagilarni aniq tushunishimiz lozim:

- Boshqalarga o`rgatish orqali o`zimiz o`rganamiz!
- Biz bitta kemadamiz: yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho`kib ketamiz.

### Dars rejasi

- 1.Olmosh haqida ma'lumot.
- 2.Olmoshning ma'noviy turlari.
- 3.Olmoshning tuzilishiga ko'ra turlari.
4. Xulosa.

### **MA'RUZA MATNI**

Barcha mustaqil so'z turkumlari va hatto yordamchi so'zlar hamda gap o'rnida almashinib kelgan so'zlarga olmosh deyiladi. Olmoshlar ot, sifat, son, ravish, fe'l o'rnida va ba'zan yordamchi so'z, gap o'rnida almashinib keladi. Masalan, Gul ochildi. Uning ochilishi kishilarga rohat bag'ishladi. Gullarning ko'pi pushti rangda. Ana shu rang menga juda yoqadi. Karim gullarni uza boshladi. Bu esa bog'bonning jahlini chiqardi. Va bog'lovchisi o'zaro teng ma'noli gaplarni bog'laydi. Bu teng bog'lovchilar sirasiga kiradi. Bu gaplarning birinchisida gul (ot) o'rnida u, ikkinchisida pushti (sifat) o'rnida ana shu, uchinchi gapda uza boshladi (fe'l) o'rnida bu so'zlari, to'rtinchi gapda va bog'lovchi o'rnida bu olmoshi almashinib kelyapti.

Olmoshlar bevosita atash ma'nosiga ega bo'lmaganligi uchun «**ichi bo'sh so'zlar**» deb ham yuritiladi.

Olmoshlar qanday so'zlarning o'rnida almashinib kelishi va qanday ma'noni ifodalashiga ko'ra bir necha ma'no turlariga bo'linadi. Buni quyidagi jadvalda ko'ring:

#### Olmoshlarning ma'no turlari

T/r	Olmoshlarning ma'no turlari	Ma'nolari va ta'rifl	Misollar
1.	Kishilik Olmohlari	Shaxs ma'nosini bildiruvchi otlar o'rnida almashinib keladi va ularga ishora qiladi.	Men (kamina)-biz Sen-siz U-ular(alar)
2.	O zlik olmoshi	Uchala shaxsdagi kishilik olmoshlari o'rnida qo'llanib, ma'nosini ta'kidlab keladi	O'z
3.	K o'rsatish Olmohlari	Mustaqil so'zlar yoki gaplar o'rnida kelib, ular orqali ifodalangan shaxs, predmet, belgi, harakatlarni ko'rsatib keladi.	U, bu, shu, o'sha, mana bu, (manavi), mana shu, ushbu
4.	So'roq Olmohlari	So'zlovchiga noma'lum bo'lgan shaxs, narsa, belgi - xususiyat, harakat-holatlarni so'rash ma'nosini bildiradi.	Kim? nima? qachon? qaysi? qancha? necha? nimaga? qani? nima qildi? nima bo'ldi?
5.	Birgalik-ajratish (belgilash) olmoshlari	Shaxs, narsa, belgi-xususiyat bildiruvchi mustaqil so'zlar o'rnida almashinib, ularning ma'nosini umumlashtirib, jamlab keladi.	Jamlash: hamma, barcha, bari, jami, jamiyki, butun, yalpi Ajratish: har kim, har nima, har qancha, har qanday, har qaysi, har bir, har narsa
6.	Bo'lishsizlik olmoshlari	Shaxs, narsa, belgi - xususiyat bildiruvchi mustaqil so'zlar o'rnida kelib, uning inkorini bildiradi.	Hech kim, hech nima, hech qancha, hech qanday, hech qanaqa, hech narsa, hech bir

7.	Gumon olmoshlar	Shaxs, narsa, belgi-xususiyat bildiruvchi mustaqil soʻzlar oʻrnida kelib, uning maʼnosini taxminlab, gumonlab keladi	Allakim, allanarsa, allaqanday, allaqancha, kimdir, nimadir, qaysidir
----	-----------------	--	---

### **Birinchi topshiriq**

**Oʻtilgan mavzu “Sonning maʼnoviy xususiyatlari” toʻgʻrisida tarqatmalar va ularga tezkor javoblar.**

#### **1-guruh**

#### **2-guruh**

#### **3-guruh**

- 1.Son deb nimaga aytiladi
- 2.Son tuzilishiga koʻra necha turga boʻlinadi
- 3.Miqdor son deb nimaga aytiladi
- 4.Miqdor sonning qanday turlari mavjud
- 5.Tartib son deganda nimani tushunasiz
- 6.Sonning maʼnoviy turlarini sanang.

**Ikkinchi topshiriq “Adashtirdim, topingchi?” oʻyini.**

**Barcha guruh uchun. Unga koʻra matndagi ayrim maʼlumotlar notoʻgʻri, siz uni topib, jadvalga joylashtiring. Toʻgʻrisi qanday boʻlishini ham unutmang.**

**1-guruh**

**2-guruh**

**3-guruh**

<b>To'g'ri</b>	<b>Noto'g'ri</b>	<b>To'g'ri</b>	<b>Noto'g'ri</b>	<b>To'g'ri</b>	<b>Noto'g'ri</b>

**Uchinchi topshiriq. "Charxpalak" texnologiyasi**

<b>Tuzilish turi Ma'no turi</b>	<b>Sodda</b>	<b>Qo'shma</b>	<b>Juft</b>	<b>Takroriy</b>
<b>Kishilik</b>				
<b>O'zlik</b>				
<b>Ko'rsatish</b>				
<b>So'roq</b>				
<b>Belgilash</b>				
<b>Bo'lishsizlik</b>				
<b>Gumon</b>				

«Lahzalik aql charxi»

Olmosh qatnashgan savollarga javob toping.

1. Ikkita shunday turli son topingki, ularning yig`indisi va ko`paytmasi teng bo`lsin
2. Dunyodagi barcha okeanlardan eng uzoq nuqta shu o`lkada joylashgan
3. Xitoyliklar, hindistonliklar, AQSH amerikaliklari, bengallar, ruslar, braziliyaliklar va yaponlar. Bu xalqlarni nima umumlashtiradi?
4. Uning har bir shahri ochiq osmon ostidagi muzey sanaladi
5. O`sha ijodkor o`z asarini 10 yil davomida yaratdi va shu janrga asos soldi
6. Bu so`z «saralangan, tanlangan» degan ma`noni bildiradi
7. Unga Jorulloh – «Ollohning qo`shnisi» degan nomni berganlar. Uning xizmatlaridan biri arab tili grammatikasini ishlab chiqqan
8. U voqea mashhur qonunning kashf qilinishiga sababchi bo`ldi?

**4-topshiriq. «Lahzalik aql charxi»**

**Beshinchi topshiriq: tarqatilgan A 3 formatdagi qog`ozlarga olmosh haqidagi tasavvurlaringizni yozuv, grafik, rasm asosida ifoda eting.**

**Baholash.**

Dars oxirida o`quvchilarning to`plagan natijalarini hisoblab chiqib, g`olib guruh e`lon qilinadi.

**Uyga vazifa:** Olmosh haqida o`qib o`rganib kelish va darslikdagi 283-mashqni bajarish.

## UMUMIY XULOSALAR VA METODIK TAVSIYALAR

Ta'lim bosqichlarida olmosh so'z turkumini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga oid amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining, shuningdek, fan dasturi va darsliklarining tahlili natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. Olmosh so'z turkumini o'rganish o'zbek tilini o'qitishning muhim qismidir. Azal-azaldan tilshunoslar va metodist olimlar ta'lim jarayonida olmosh so'z turkumini va uning mavzularini o'rganishga doir qator ilmiy ishlar monografiyalar yaratishgan. Morfologiya bo'limininig tarkibiy qismlari ta'limda qator murakkabliklar keltirib chiqayotgan ham bejiz emas. Olmoshning asosiy muammolaridan biri so'zning mustaqil til birligi sifatida mavjudligi masalasidir.

2. Tahlilga tortilgan ilmiy-tadqiqot ishlaridan va o'quv va metodik qo'llanmalarining mazmunidan ham shu narsa anglashildiki, zamonaviy pedagogik texnologiya asosida aynan "olmosh" so'z turkumini o'qitishga bag'ishlangan ishlar yo'q. Ammo aksariyat ishlarda bu bo'lim mavzulari pedagogik texnologiya haqida fikr yuritilgan o'quv-metodik ishlarda va ilmiy tadqiqot ishlarida tadqiqot predmeti sifatida tatbiq etilgan.

3. Umumta'lim maktablarining "Ona tili" o'quv dasturidan o'rin olgan "Olmosh" so'z turkumi mavzulari va ular uchun ajratilgan o'quv soatlari o'quvchilarga bu bo'lim yuzasidan yetarlicha bilim berishga, ularda shu mavzular bo'yicha ko'nikma va malakalar hosil qilishga imkon beradi. Mavzuga oid termin-tushunchalar, o'qitilishi lozim bo'lgan grammatik qoidalar, ulardagi uzviylik ilmiylik o'quvchida bu so'z turkumi yuzasidan yetarlicha bilim olishga, ko'nikma va malakalar hosil qilishga mo'ljallangan, o'quvchining og'zaki va yozma nutqini o'stirishga, bog'lanishli nutqini shakllantirishga, ularning so'z boyligini oshirishga, so'z va uning ma'nolari ustida ishlash ko'nikmalarini va sintaktik qurilmalar ustida ishlash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan uzviy tizim sifatida bayon qilingan. Ammo o'quv soatlarini biroz ko'paytirilganda yaxshi bo'lardi. Chunki olmosh boshqa so'z turkumlariga qaraganda ancha murakkabroq mavzu deb o'ylayman.

4. Akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv dasturini umumta'lim maktablarining "Ona tili" o'quv dasturining uzviy davomi deb aytish mumkin, chunki maktab dasturida olmosh haqida sof nazariy leksik bilimlar berilishi nazarda tutilgan bo'lsa, akademik litseylarning bu o'quv dasturida olmoshning uslubiy xususiyatlariga e'tibor berish ko'zda tutilgan.

5. Umumta'lim maktablarining "Ona tili" va akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv dasturlari darsliklari "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" aks ettirilgan ta'limning uzviyligi va

uzluksizligi, nazariya va amaliyotning o‘zaro aloqadorligi tamoyili talablariga mos tarzda yaratilgan. Faqat e’tiroz sifatida shuni aytish mumkinki, maktab darsligida faqatgina 7-sinf darsligida emas boshqa sinf darsligida ham kiritilishi, akademik litsey uchun yaratilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida asosiy e’tibor olmoshning uslubiy xususiyatlariga va ularni mustahlash uchun berilgan mashq va topshiriqlar uchun tanlangan matnlarni esa hajm jihatidan biroz kichikroq hamda unda mavzuga aloqador termin-tushunchalarning nisbatan ko‘pligiga e’tiborni qaratish zarur.

6. Darsni o‘quvchilarga tushuntirish jarayonida avval mavzuni og‘zaki tarzda ozroq bayon qilib, har bir qoidaga alohida misollar berilib ketilsa va o‘quvchilardan ham misol so‘ralsa ma’ruzaning interfaol usulda o‘tilishi ta’minlanadi. Ma’ruza jarayonida o‘quvchilarga murojaat qilish ularning diqqatini jamlashiga, nofaol tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Natijada, o‘quvchilar olmoshga mustaqil misol topishlari ortidan mavzuni yaxshiroq o‘zlashtiradi, bevosita o‘zlari ishtirok etganlari uchun mavzu xotirada yaxshiroq saqlanib qoladi.

7. O‘quvchilarga dars qay darajada tushunarli bo‘lganini bilib olish uchun shu mavzuga doir test, krossvord va har bir o‘quvchiga beriladigan individual savollardan foydalangan ma’qul. Mazkur mashqlar o‘quvchidan maxsus tayyorgarlik talab etmaydi, biroq yangi olingan ma’lumotni unga aloqador tushunchalar orqali xotirada faollashtirishadi. Berilgan topshiriqni bajarishi natijasida o‘quvchining nimalarni tushunganini bilib olish va zaif joylarini mustahkamlash mumkin.

8. O‘quvchilarni baholash uchun esa, bir necha olmoshlar yozilgan kartochkalarni o‘quvchilarga tarqatib, ularni 5 daqiqa ichida kim tez ma’naviy turlarga ajratish vazifasini berish orqali amalga oshirsa bo‘ladi. Bu jarayonda birinchi bajargan beshtalikka “5” baho, ikkinchi beshtalikka “4” baho, uchinchi beshtalikka esa “3” baho qo‘yiladi. Bu jarayon o‘quvchida musobaqalashish hissiyotini uyg‘otadi, qo‘yilgan vazifani bajarishga ishtiyoqini oshiradi.

9. Ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiyalarning muhim jihati shundaki, u o‘quvchilarni faollashtiradi, ularga fikrni mustaqil ifodalash, tanqidiy fikr yuritish, tahlil qilish, xulosa chiqarishni o‘rgatadi.

10. Olmosh so‘z turkumini amaliyot jarayonida ikkinchi kurs talabalariga o‘tish jarayonida shu narsa kuzatildiki, dars davomida “Muammoli vaziyat” “Blits-so‘rov” foydalanilsa ijobiy yaxshi natija berar ekan. Muammoli ta’lim texnologiyasi metodlarini darsda qo‘llash orqali o‘quvchilarning bir-biriga qarama-qarshi fikrlar bildirish qobiliyatini shakllantirish, muammolarga tez va oson yechim topa olish qobiliyatini shakllantiradi.



## Tayanch soʻzlarning oʻzbekcha-inglizcha lugʻati

1. Adabiy til – literary language
2. Olmosh-pronoun
3. Kishilik olmoshlari-personal pronouns
4. Oʻzlik olmoshlari-reflexive pronouns
5. Koʻrsatish olmoshlari-demonstrative pronouns
6. Soʻroq olmoshlari-interrogative pronouns
7. Belgilash olmoshlari-definite pronouns
8. Boʻlishsizlik olmoshlari-negative pronouns
9. Gumon olmoshlari-indefinite pronouns
10. Ahamiyatli – important, considerable
11. Amaliy – practical, applied
12. Amaliy ish – practical work
13. Anʻanaviy – traditional
14. Anʻanaviylik – traditional nature
15. Aqliy faoliyat – mental activities
16. Asosiy – main, chief, principal, fundamental
17. Axborot – report, information
18. Dars – lesson, class, occupation
19. Darslik – textbook, manual, primer
20. Darsxona (sinf, auditoriya) – lecture-hall, lecture-room, classroom
21. Dastur – reversing rod
22. Didaktika – didactics
23. Dolzarb – peak, culmination
24. Erkin – free
25. Eshituvchi – listener
26. Fan – science, subject
27. Izohli lugʻat – dictionary
28. Faol – active
29. Faoliyat – activity
30. Faollik – activity
31. Fikr – idea, thought, opinion
32. Filologiya – philology
33. Foydalanish – use, using, useful
34. Ijobiy – positive, favourable
35. Ijodkorlik – creation
36. Ilmiy – scientific

37. Iqtidorli – powerful, mighty
38. Izoh bermoq – explain
39. Izchil – successive, consecutive
40. Jalb etmoq – attract smb's attention
41. Joriy etmoq – put into practice, introduce
42. Jurnal – journal, periodical
43. Kelajak avlod – future the next generation
44. Kitob – book
45. Kompyuter – computer
46. Ko'rgazma – exhibition
47. Ko'rsatmali – graphic, obvious
48. Malakali – experienced, skilled
49. Maqsadga muvofiq – expedient
50. Mavzu – subject, theme
51. Mashg'ulot – occupation, studies
52. Metod – method, methodology
53. Metodik – systematic, methodologic
54. Metodika – method, methodology
55. Metodist – methodologist
56. Muallim (o'qituvchi) – teacher
57. Mustaqil – self-dependent
58. Og'zaki – oral, verbal
59. Pedagog – teacher, educator
60. Pedagogik – pedagogical, educational
61. Psixologik – psychology
62. Qiziqarli – interesting, interestingly
63. Rivojlantirish – fostering, developing
64. Samarali – fruitful, productive, effective
65. Sezgi – feeling, sense
66. Ilmiy tadqiqot – research
67. Tahlil qilmoq – analyze
68. Taqdim qilmoq – present smb. (with), offer
69. Tarbiya – education, upbringing, care
70. Tarbiyalamoq – bring up, educate
71. Tatbiq etmoq – apply, employ, use
72. Ta'lim – education, teaching
73. Texnologiya – technology
74. Til – tongue, language

75. Umumta'lim – public education
76. Usul – method, way
77. Uzluksiz – uninterrupted, continuous
78. Uzviy – organic
79. Vosita – instrument, means, ways, methods
80. Xulosa – conclusion, summary
81. Xususiyat – peculiarity, uniqueness
82. Zamonaviy – contemporary, modern, current
83. Zarur – necessary, urgency
84. O'qimoq – study
85. O'qitish – teaching
86. O'qitmoq – teach
87. O'quvchi – pupil
88. O'rganmoq – learn, study, master
89. O'rgatish – instructing, teaching
90. O'yin – play, game
91. O'zlashtirmoq – master, acquire, assimilate (a subject, profession)

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Акромов Ш., Акромова Л. Сатҳлараро боғланишли тест технологиясидан фойдаланиш // Тил ва адабиёт таълими. – 2002, 1-сон. – Б. 7–9.
2. Аминова С. Она тили дарсларида ноанъанавий усуллар // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 1995. – № 1. – Б. 17-18.
3. Бектошев Ш. Она тили дарсларида ўйин усулидан фойдаланиш // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 1993. – № 5-6. – Б. 15-16.
4. Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоқлардан фойдаланиш: Пед. фан. номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 1996. – 146 б.
5. Боқиева Ҳ. Ҳар дарсада ҳамкорлик // Бошланғич таълим. – Тошкент, 2008. – №2. – Б. 28-29.
6. Давлат таълим стандартига шарҳ: Она тили // Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. – Таълим тараққиёти. Ахборотнома, 1-махсус сон. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 46-54.
7. Ганиев Т.Т. Активизация познавательной деятельности учащихся в процессе выполнения упражнений по родному (узбекскому) языку. Автореф. дисс. ...канд. пед. наук. – Ташкент, 1991. – 23 с
8. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylarning 1-2-3-bosqich talabalari uchun darslik. T.: Xalq merosi, 2013.
9. Исабаев Э. Қазақ тілін оқыту методикасы (жалпы методика): Университет пен пединституттардың филология факультеті студенттеріне арналған оқулық. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – 256 б.
10. Karimov I.A. Она yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. – B.: 302.
11. Каримов И. А. Баркамол авлод орзуси. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.: 248.
12. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б.: 440.

13. Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.: 31-61.
14. Mahmudov N., Nurmonov A. va boshqalar. Ona tili. 5-sinf. O'qituvchilar uchun qo'llanma. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – 176 b.
15. Mahmudov N. va boshqalar. Ona tili. 7-sinf. / O'qituvchilar uchun qo'llanma. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. – 141 b.
16. Мирмахсудова М. Ўқувчилар нутқини такомиллаштиришда грамматик терминлардан фойдаланишнинг лингво методик асослари (5–7-синф натижаларимисолида): Пед.фан.номзод дисс. – Тошкент, 2004. – 160 б.
17. Ne'matov H. , G'ulomov A. va boshq Ona tili. 7-sinf uchun darslik. 2-nashri. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 128 b.
18. Омилхонова М., Абдуллаев Й. ва бошқалар. 7- ва 8- синфда она тили дарслари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 205 б.
19. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / Mual. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirov va boshq. – Toshkent: Ma'naviyat, 2011. – 224 b
20. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / Mual. N.Mahmudov, A.Sobirov, V.Qodirov va boshq. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – 224 b.
21. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun / N. Mahmudov, A.Nurmonov va boshq. – Toshkent: «Tasvir» nashriyot uyi. 2005. – 176 b.
- 22.Ona tili: Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik / N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov va boshq. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. –128 b.
23. Ona tili fanidan Davlat ta'lim standarti: Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari. – Toshkent, RTM, 2010. – B. 10-19.
24. Ona tili fanidan umumiy o'rta ta'lim maktabining o'quv dasturi: Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari. – Toshkent, RTM, 2010. – B. 20-41

25. Курбонова Х. Она тили таълими мазмунини янгилашнинг лингвометодик асослари: Пед.фан.номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 157 б.
26. Розиков О. Ўзбек тилидан дарс типлари: Педагогика институтларининг филология факультетлари студентлари ҳамда тил ва адабиёт ўқитувчилари учун қўлланма – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – 123 б.
27. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед.фан. номзоди. ...дисс. –Тошкент, 2000. –128 б.
28. Сафарова Р. Она тили таълимининг янгиланган мазмуни ва унинг дидактик асослари. – Тошкент: Фан, 1995. – 108 б.
29. Тил таълими босқичларида узвийликни таъминлашнинг илмий-амалий муаммолари// Ўзбек тили доимий анжумани ўнинчи йиғини материаллари. – Тошкент: РТМ, 2009. – 269 б.
30. Uluqov N.M., G‘oyibnazarova N.R.Ona tili. 6-sinf: O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma / N.M.Uluqov, N.R.G‘oyibnazarova,–Toshkent: “Tasvir” nashriyot uyi , 2005.–192 b.
31. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.: 20–29.
32. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. П. Э-М Таҳрирхайъати: Мирзаев Т. (раҳбар) ва бошқалар. Ўз РФАТил ва адабиёт институти. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат нашриёти, 2006. – Б.: 672.
33. Ўзбек мактабларида она тили ўқитиш концепцияси. – Тошкент: ЎзПФИТИ, 1993. – 21 б.
34. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B.: 176.
35. Зиёдова Т.У. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш. Пед. фан.номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 1995. – 141 б.

36. Зиёдова Т. Тилсим топишмоқлари – нутқий фаолиятни шакллантириш омили: Она тили ўқитувчилари учун методик қўлланма. – Тошкент: РТМ, 1999. – 73 б.
37. Зиёдова Т.У., Холматова У., Жуманиёзова Х.Т. Ўқитувчи китоби (5-синф она тили дарслиги бўйича ўқув-методик қўлланма). – Тошкент: Халқ мероси, 2002. – 139 б.
38. Зиёдова Т. Ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш. – Тошкент, 2000. – 163 б.
39. 8-sinf uchun ona tili o‘quv fanidan takomillashtirilgan dastur. Tuzuvchilar: H.Ne‘matov, N.Mahmudov, R.Sayfullayeva, M.Qodirov, M.Abduraimova // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2008. – №8-son. – B. 8-18.
40. Фуломов А., Қобилова Б. Нутқ ўстириш машғулоти: Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 160 б.
41. Юсупова Ш.Ж. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илғор педагогик технологияларни жорий этиш (ноанъанавий усуллар ва компьютердан фойдаланиш): Пед. фан. номзоди ... дисс. – Тошкент, 1998. – 26 б.
42. Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. доктори ... дисс. – Тошкент, 2005. – 270 б; дисс. автореферати. – 44 б.

### **Elektron ta’lim resurslari**

Elektron saytlar ro‘yxati:

- <http://www.ZiyoNet.uz>;
- <http://www.ziyouz.uz>;
- <http://www.uzedu.uz>;
- <http://www.kitob.uz>;
- <http://www.fikr.uz>;
- <http://www.utube.uz>;
- <http://www.edunet.uz>;